

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**  
**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

**"Himoyaga ruxsat etildi"**  
**Magistratura bo'limi boshlig'i**  
**dotsent                      G'.A.Doliyev**  
**"                    " 2019-yil**

**5A120102 – Lingvistika: (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti**  
**Jabborova Zilola Turdaliyevnaning**

**"SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARINING LINGVOPOETIK**  
**TADQIQI"**  
**mavzusidagi**

**MAGISTRLIK DISSERTATSIYA**  
**ISHI**

**O'zbek tili kafedra mudiri:**



**N. Uluqov, f.f.d., professor**

**MDI rahbari:**



**H. Usmonova, f.f.d, professor**

**Namangan – 2019**

## MUNDARIJA:

|                                                                                         |           |
|-----------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>Kirish</b> .....                                                                     | 3         |
| <b>I bob. Shukur Xolmirzayev hikoyalarining fonopoetik xususiyatlari</b>                | <b>10</b> |
| .....                                                                                   |           |
| 1.1. Segment birliklar fonopoetikasi.....                                               | 10        |
| 1.2. Ustsegment birliklar fonopoetikasi.....                                            | 28        |
| Bob bo'yicha xulosa.....                                                                | 33        |
| <b>II bob. Sh.Xolmirzayev hikoyalari leksikasining lingvopoetik xususiyatlari</b> ..... | <b>34</b> |
| 2.1. Sh.Xolmirzayevning so'z qo'llash mahorati.....                                     | 34        |
| 2.2. Frazeologizmlarning lingvopoetik xususiyatlari.....                                | 42        |
| 2.3. Tasviriy vositalarning til xususiyatlari.....                                      | 46        |
| Bob bo'yicha xulosa.....                                                                | 53        |
| <b>III bob. Sh.Xolmirzayev hikoyalarida poetik sintaksis</b> .....                      | <b>55</b> |
| 3.1. Poetik sintaksis va badiiy asar tili.....                                          | 55        |
| 3.2. Murojaat-undalmalarning lingvopoetik xususiyatlari.....                            | 64        |
| Bob bo'yicha xulosa.....                                                                | 66        |
| <b>Umumiy xulosalar</b> .....                                                           | <b>68</b> |
| <b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati</b> .....                                         | <b>70</b> |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, badiiy adabiyot durdonalarini va, umuman, har qanday sohadagi adabiyotlarni nashr etish va kitobxonlarga, ilm ahliga etkazish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki shaxsan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan kitobxonlik masalasi kun tartibiga qo'yildi, bu borada joriy yilning 12-yanvarida "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish to'g'risida komissiya tuzish to'g'risida" farmoyish e'lon qilindi. Demak, ma'naviyatga, badiiy adabiyotga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta nashabbus qatoridan ham kitobxonlik, adabiyot va san'at targ'iboti masalasi o'rin olgan. Jumladan, to'rtinchi tashabbus sifatida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.<sup>1</sup>

Adabiyot va til masalalari doimo bir-biri bilan uzviy bog'liq masalalar hisoblangan. Ana shu uzviylik natijasida filologiya fanida lingvopoetika sohasi yuzaga keldi va bugungi kunda jadallik bilan taraqqiy etib bormoqda.

Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Mazkur atamalar ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin o'zaro ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. «Obraz», «uslub», «ko'chim (trop)», «badiiy til», «stilistika», «poetika» kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetikaga daxldor tushunchalardir.<sup>2</sup>

Badiiy asarning lingvopoetik tahlili tilning nazariy tomonlari, ijtimoiy funksiyalari va inson ma'naviyatining in'ikosi ekanini bir butun holda tasavvur etishga imkon yaratadi. Chunki lingvopoetika o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra filologiya sohasi tarmoqlarini o'zida mujassamlashtirishga, uning bir butunligini

<sup>1</sup> Prezident tomonidan ilgari surilgan yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalar // m.mfa.uz.

<sup>2</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. –Т.: Академнашр, 2012. 3- жилдлик. 1-жилд. – Б.121.

ta'minlashga qaratilgandir. Lingvopoetik tahlil jarayoni faqat yozuvchining tili va uslubi haqida ma'lumot berish bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchining so'z boyligi, til tasvir vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman, tilning uning barcha satrlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo'ladi.

Mazkur tadqiqotimiz ana tilshunoslik va adabiyotshunoslikning tutashgan nuqtasida turgan soha – lingvopoetikaga oid ekanligi hamda so'zning badiiyligi, estetik tomonini tahlil qilishga qaratilgani bilan dolzarblik kasb etadi.

Ma'lumki, ko'ngilga so'z bilan kiriladi. Inson qalbiga yo'l topishning qudratli vositasi adabiyotdir. Muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek:"...har qaysi iste'dod egasi o'ziga xos bir olam, shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o'rgatish, eng asosiysi, ularni boshqarishga urinish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan, yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar borki, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Agarki har qaysi ijodkor o'z asarlaridan shu o'lmas g'oyalarni bosh maqsad qilib qo'ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa, hech shubhasiz, adabiyot ham, madaniyat va san'at ham tom ma'noda ma'naviy yuksalishga xizmat qilib, o'zining itimoiy vazifasini to'liq ado etishga erishgan bo'ladi"<sup>3</sup>.

O'zbek tilshunosligida "lingvopoetika" atamasi hali o'z o'rnini topmagan paytlarda ham bu masalaga aloqador juda ko'p ilmiy ishlar qilingan, lekin ularning ko'pchiligi ma'lum bir yozuvchining tili va uslubi doirasi tahlillaridan iborat bo'lib, asosan, uslubshunoslik doirasida amalga oshirilgan. Tilning fonetik, grammatik, semantik sathlari bo'yicha ba'zi ishlardagina fikr yuritilgan. Badiiyligni ta'minlovchi til unsurlari, ularning yozuvchi maqsadini ifodalashdagi o'rnini turli darajada va turli nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlarda tavsifiy usul asosiy o'rin egallagan bo'lib, tahlilning ayrim-ayrim jihatlariga ko'proq e'tibor berilgan. Badiiy til aksariyat hollarda adabiyotshunoslik nuqtayi

---

<sup>3</sup> Каримов И. Юксак маънавият-енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – Б. 158.

nazaridan baholanib, unda asosiy e'tibor tasvir vositalarining qo'llanishi natijasida vujudga kelgan poetik tasvir tahliliga qaratilgan. Shuningdek, badiiy uslub tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan ilmiy ishlar ham mavjud.

Bugungi kun filologiyasining dolzarb vazifalaridan biri o'zbek lingvopoetikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, bir tizimga solish, uning tadqiq va usullarini yaxlit holda o'rganish, barcha tushunchalarni guruhlashtirish, shu yo'l bilan badiiylikni ta'minlovchi unsurlarni ham til jihatdan tadqiq etishdan iborat. Tadqiqotchi G. Rixsiyeva ularni quyidagi yonalishlar bo'yicha tasniflaydi:

poetik fonetika, poetik leksikologiya, poetik morfemika, poetik semantika, poetik sintaksis<sup>4</sup>.

Poetik fonetikada badiiylikni ta'minlovchi unsurlar sifatida tovushlar o'rganiladi. Uslubni yaratishda o'ziga xos tovush o'zgarishlari, urg'u, ohang, ularning o'quvchi tasavvuridagi ta'siri va boshqa omillar e'tiborga olinadi. Masalan, she'riyatdagi vazifa talabiga ko'ra tovush tushishi, tovush o'zgarishi, tovush orttirilishi, tovushlarning o'rin almashinuvi kabilar. Nasriy asarlarda ham badiiy obrazning ishonchli bo'lishi uchun turli so'zlar ifodasidagi o'ziga xos holatlar kuzatiladi.

Poetik leksikologiyaaning tadqiqot ko'lami nihoyatda keng bo'lib, o'zbek tilshunosligida ham bir qator ilmiy ishlar qilingan. Tilda har bir unurning o'z vazifasi, ma'no doirasi, boshqa unsurlar, birliklar bilan bog'lanish qonuniyatlari bor. Ana shu qonuniyatlardan mukammal boxabar bo'lgan, so'z sezgisi va mahorati yuksak yozuvchi betakror tasvir, kutilmagan badiiy lavhalar paydo qila oladi. Shunda kitobxon asarning nafaqat g'oyasi, balki go'zal tilining asiriga aylanadi. Bunda umumxalq tilidagi badiiy tasvirga favqulodda muvofiq birliklarni tanlash, saralash va sayqallash asosida, lisoniy-badiiy qonuniyatlardan kelib chiqqan holda ularga yuklangan xilma-xil badiiy-estetik ma'nolar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

---

<sup>4</sup> Рихсиева Г. Лингвопоэтик тадқиқ асослари бўйича мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. №2. – Б. 84.

Yozuvchining soʻz qoʻllash mahoratini baholash uchun, avvalo, soʻz va uning maʼnosi, bu maʼnoning tuzilishini aniq tasavvur etish lozim. Soʻzning qoʻllanishi bilan bogʻliq holda yuzaga chiqadigan qoʻshimcha maʼno nozikliklari turli tasvir usullari va vositalari orqali reallashishi mumkin. Ammo bunday qoʻshimcha maʼno nozikliklari koʻpincha soʻz maʼnosining oʻzida imkoniyat tarzida mavjud boʻladi, ular soʻzning maʼno qurilishida ilgaridan qayd etilgan boʻladi.

Poetik morfemikada asar matnida oʻziga xos tarzda qoʻllangan har bir affiksning tahlili ham tarixiy, ham tavsifiy, ham qiyosiy jihatdan olib boriladi.

Poetik semantikada esa soʻzlarning maʼno qirralarini ifoda etishi, ayniqsa, koʻchma maʼnoda qoʻllanishi tadqiqida ham til boyligi, ham uslubning oʻziga xosligini koʻrsatib beruvchi vositalarga diqqat qaratiladi. Ijodkorning mahorati, soʻz boyligi, soʻz tanlash imkoniyatlari yoritib beriladi.

Poetik sintaksisda matnning gap qurilishi tadqiq qilinadi. Badiiy nutqni tahlil qilish ikki xil: sheʼriy va nasriy matn asosida amalga oshiriladi, chunki bunda sheʼriy nutqni shakllantiruvchi unsurlarga, sheʼriy nutq tuzilish tizimiga, gap boʻlaklari tartibiga, badiiy tasvir vositalarining qoʻllanishiga eʼtibor berish kerak boʻladi. Shoirning gʻoyasi va maqsadini aniqlashda gap boʻlaklarinng shaklan va mazmunan ifodalanish usullarini, emotsional-ekspressivlikni taʼminlovchi barcha vositalarni tahlil etish zarur. Nasriy nutqda ham gaplar va gap boʻlaklari tartibi, shakliy va mazmuniy mutanosiblik kabilarga eʼtibor berish kerak.

XX asr oʻzbek adabiyotida oʻzining salmoqli oʻrniga ega adiblardan biri mashhur yozuvchi Shukur Xolmirzayevdir. Uning “Olaboʻji”, “Soʻnggi bekat”, “Qil koʻprik” kabi romanlari, “Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”, “Bukri tol”, “Bulut toʻsgan oy” kabi qissalari, “Yashil niva”, “Oʻzbek xarakteri” kabi qator hikoyalari katta shuhrat qozondi hamda xalqimiz qalbidan oʻrin oldi, adabiyotshunos olimlar tomonidan yetuk asarlar sifatida eʼtirof etildi. Sh. Xolmirzayev asarlari mavzuning yangiligi, qahramonlar tasvirining oʻziga xosligi, hayotiyligi, samimiyligi, yuksak insoniy fazilat va qadriyatlar qalamga olingani bilan ham adabiyotimizda chinakam yangilik boʻla oldi. Adib dastlabki asarlaridan

boshlab hayotning o'ziga yaqin va tanish jihatlarini qalamga oldi, tasvirda samimiylikka intildi, qahramonlar ruhiy olami tahliliga e'tibor berdi. Adib asarlarida o'ziga xos tasvir tili, o'ziga xos ravon uslub bo'lib, bu yozuvchi ijodiga lingvopoetik nuqtayi nazardan yondashishni talab etadi.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Keyingi yillarda adabiyot va tilning kesishgan nuqtasi – lingvopoetikaga oid tadqiqotlar tilshunosligimizda ko'plab amalga oshirilmoqda. Keyingi yillarda e'lon qilingan badiiy asarlarning lingvopoetik tadqiqiga doir bir qator tadqiqotlardan manba sifatida foydalanishimiz mumkin. Jumladan, A.Nurmonov,<sup>5</sup> Sh.Doniyorov<sup>6</sup>, D.Ne'matova<sup>7</sup>, Y.Sayidov<sup>8</sup>, A. Sabriddinov<sup>9</sup>, L.Jalolova<sup>10</sup>, Sh.Shadieva<sup>11</sup> tomonidan bajarilgan o'zbek yozuvchi va shoirlari ijodining lisoniy tadqiqiga doir ishlar bizning ishimiz uchun ham aloqadordir.

**Tadqiqotning obykti.** Sh. Xolmirzayevning qissa, roman va hikoyalari tadqiqot obykti sanaladi.

**Tadqiqot predmetini** Sh. Xolmirzayev qissa va hikoyalarida adibning so'z qo'llash mahorati, tilning ifoda imkoniyatlari va estetik vazifasi aks etishini tahlil qilish tashkil etadi.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ishning asosiy maqsadi Sh.Xolmirzayev asarlarining fonopoetik, leksik-semantik va uslubiy xususiyatlarini o'rganish hamda misollar asosida tahlil qilishdan iboratdir.

**Tadqiqotning vazifalari.** Ishning asosiy maqsad-mohiyatidan kelib chiqib ish oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

---

<sup>5</sup> Нурмонов А. Чўлпон асарларининг тил хусусиятлари // Чўлпон: ҳаёти ва ижодий мероси. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Андижон, 2000. – Б. 71-74.

Нурмонов А. Ғафур Ғуломнинг ҳозирги ўзбек адабий тилининг шаклланишидаги хизматлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2003. №5.– Б. 32-35.

<sup>6</sup> Дониёров Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

<sup>7</sup> Неъматова Д. Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

<sup>8</sup> Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001.

<sup>9</sup> Сабриддинов А. Ойбекнинг поэтик маҳорати: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2004.

<sup>10</sup> Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

<sup>11</sup> Шадиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърияти лингвопоэтикаси: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2007.

Sh.Xolmirzayevning soʻz qoʻllash mahoratini oʻrganish.

Fonetik birliklarning badiiy asar taʼsirchanligini oshirishdagi ahamiyatini yoritish.

Adib asarlari leksik-semantik xususiyatlarini lingvopoetik jihatdan yoritish.

Muallif va personajlar nutqidagi oʻziga xoslikning lingvopoetik xususiyatini tahlil qilish.

Asarlardagi badiiy tasvir vositalarining lisoniy hamda poetik, uslubiy xususiyatlarini aniqlash va ularni tahlil qilish.

Sh.Xolmirzayev asarlaridagi poetik sintaksis masalasini tahlil qilish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Magistrlik dissertatsiyasida Sh.Xolmirzayev qissalari va hikoyalari misolida lisoniy va badiiy jihatlarning uygʻunligi, fonetik, leksik, grammatik vositalarning taʼsir qilish va estetik vazifasi koʻrsatib beriladi.

**Tadqiqotning metodlari.** Tadqiqotning metodologik asosini falsafaning shakl-mazmun, sabab-oqibat, umumiylik-xususiylik kategoriyalari, zamonaviy tilshunoslikning badiiy-estetik merosni ilmiy baholash, lisoniy tadqiqiga oid qarashlar tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Ishda, asosan, tavsiflash, umumlashtirish, tasniflash, lugʻaviy-maʼnaviy tahlil, uslubiy tahlil, lingvopoetik tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Ishning nazariy asoslari.** Mavzuga oid nazariy masalalarni yoritishda mashhur tilshunoslar A. Nurmonov, N.Mahmudov, A.Hojiyev, R.Qoʻngʻurov, E.Begmatov, A.Hojiahmedov, T.Boboyev, S.Karimov, J.Lapasov, M.Yoʻldoshev kabi olimlarning tadqiqotlariga asoslanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Mazkur dissertatsiya materiallaridan Sh. Xolmirzayev asarlari lingvopoetik xususiyatlarini, lingvopoetika va unga doir ilmiy, amaliy masalalarni oʻrganishda, oliy oʻquv yurtlarida «Badiiy tahlil asoslari», “Adabiyot nazariyasi”, “Uslubiyat” sohalarini oʻqitishda, akademik litsey va umumiy oʻrta taʼlim maktablarida adib ijodini oʻrgatishda foydalanish mumkin.

**Dissertatsiyaning tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 72 bet.

# **I BOB. Sh. XOLMIRZAYEV ASARLARINING FONOPOETIK XUSUSIYATLARI**

## **1.1. Segment birliklar fonopoetikasi**

Ma'lumki, XX asr o'zbek adabiyotida Qodiriy va Cho'lpon, Oybek va G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor va Said Ahamad, Pirimqul Qodiriy va Odil Yoqubov, O'tkir Hoshimov va O'mas Umarbekov kabi yetuk nasr ustalari, ta'kidlash joiz bo'lsa, mumtoz so'z san'atkorlari yetishib chiqqan. Ana shu ustoz nosirlar qatoriga o'zbek hikoyanavisligini yana bir pog'ona yuksaklikka ko'tara olgan, bu borada maktab yarata olgan adib Sh.Xolmirzayevdir. XX asr o'zbek hikoyachiligi an'analarini Shukur Xolmirzayev shu asrning so'nggi choragida yanada boyitdi. Shukur Xolmirzayev ustozlardan eng yaxshi sifatlarni o'zlashtirgan holda, yangiliklarga intiladi. Shu ma'noda adibni XX asrning so'nggi davri hikoyanavisligi va yangi davr – istiqlol davri hikoyachiligi orasidagi bir ko'priikka o'xshaydi.

Shukur Xolmirzayev 1940-yilning 24-martida Surxondaryoning Boysun tumanidagi Shahidlar guzarida dunyoga kelgam. Uning otasi Fayzulla Xolmirza o'g'li asli bulung'urlik, o'zbeklarning tuyoqli urug'idan bo'lib, tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslardan edi. Shu sababli ham sho'rolar tuzumining dastlabki davrlarida yuqori lavozimlarda ishlagan. Qatago'on yillarida (1937-1938) Usmon Yusupovning maslahati bilan Boysunga ketib, o'sha yerda bo'lajak adibning onasi bilan oila quradi. O'sha yerdagi tuman gazetalarining birida muharrirlik qiladi. Ammo sho'ro hukumatining changalidan qutulib ketolmaydi. 1940-yilning o'rtalarida qamoqqa olinib, Rossiyaning chekka hududlaridan biriga surgun qilinadi. O'sha yerda og'ir mehnat tufayli 1944-yilda olamdan o'tadi. Shukurning onasi ham g'oyat ishchan va oz bo'lsada ma'lumotli ayol bo'lganligi tufayli uzoq yillar tuman miqyosida turli lavozimlarda ishlab kelgan.

Shukur Xolmirzayev Boysundagi o'rta maktabni tugatgach, 1958-yilda Toshken davlat universitetining filologiya fakultetiga o'qishga kirib, uni 1963-

yilda tamomladi. Shundan so'ng Toshkentdagi bir qator nashriyotlar va gazeta-jurnallar tahririyatlarida faoliyat ko'rsatadi. Zamonaviy o'zbek nasrining zabardast vakili Shukur Xolmirzayev 2005-yil 29-sentabrda vafot etdi.

Shukur Xolmirzayevga Olloh tomonidan g'oyat katta iste'dod ato etilgandi. Haddan tashqari kuzatuvchan, hayotga yaqin yashar edi. Adib jahon adabiyotining eng sara namunalari bilan yaxshi tanish edi. Ana shu omillar uni juda erta ijod qilishga undadi. Uning dastlabki kitoblari ancha erta – universitet talabasi bo'lib yurgan paytlaridayoq chop etildi. Adib *“Oq o'tli”* deb nomlangan qissasi bilan kitobsevarlarning e'tiboriga tushdi. Uning *“To'lqinlar”* qissasi yetuk nosir Abdulla Qahhorning tahsiniga sazovor bo'ldi.

Shukur Xolmirzayev nasrning hikoya janrida ham, qissa va roman janrlarida ham sermahsul ijod qildi. Uning *“Yovvoyi gul”*, *“Bahor o'tdi”*, *“Yashil niva”*, *“Ozodlik”*, *“Shudrinig tushgan bedazor”* kabi hikoyalari, *“O'n sakkizga kirmagam kim bor”*, *“Taqdir bashorati”*, *“Qahramonning so'nggi kunlari”*, *“Bulut to'sgan oy”*, *“Yur, tog'larga ketamiz”* kabi qissalari, *“So'nggi bekat”*, *“Qil ko'pri”*, *“Yo'lovchi”*, *“Olabo'ji”*, *“Dinozavr”* kabi romanlari o'zbek nasrining eng nodir namunalariga aylandi.

Shukur Xolmirzayev, eng avvalo, mahoratli hikoyanavis sanaladi. Adibning hikoyalari o'zbek novellistikasi taraqqiyotining o'ziga xos davrini tashkil etdi deyish mumkin. Uning qator asarlari hikoya janrning keng miqyosdagi manaman degan namunalari bilan haqli ravishda bo'ylasha oladi. Adib hikoyalarida har doim tilga olinaverib siyqasi chiqqan xarakterlarni, quruq nasihatgo'ylikni, tayyor qolipdagi iboralarni deyarli uchratmaymiz. U haqiqiy ijodkor sifatida doim yangi obrazlar yaratishga intiladi. Asar kompozitsion qurilishida bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar topishga urinadi. Bu borada tajribalar o'tkazishdan cho'chimaydi va ko'pincha, muvaffaqiyatlarga erishadi.

O'zbek kishisi orzu-armonlarining, aksar hollarda, yashirin iztiroblarining yoritilmagan qirralarini, ruhiyatidagi evrilishlarini qalamga oladi. Bu qahramonlar o'zga yozuvchilarning qahramonlariga o'xshamagan: goh do'lvor, goh to'pori, goh dag'al va chapani, goh kichkinagina bir muhit vakili. Lekin barchasining ichki

dunyosi o'ziga xos, ruhan teran, insonparvar, e'tiqodidan qaytmaydigan, shularga munosib ravishda mulohaza yuritadigan jonli va hayotiy kishilardir. Bu qahramonlar o'zligini, millatini, yurt tuprog'i-yu udumini, dini va diyonatini har narsadan ustun qo'yadilar. Butun hayotlari davomida adolat uchun, haqiqat uchun kurashadilar. Lekin biror qahramon bu maqsadda hech qachon balandparvozlik qilmaydi, ayyuhannos solmaydi. Ular tashqaridan emas, ko'pincha, ichdan jozibali, istarali, mehortart bo'ladi. Shukur Xolmirzayev hikoyalari hayotda, inson qalbida yechilmay yotgan muammolarning badiiy tahliliga qaratiladi. U o'zi yaratgan qahramonlariga nisbatan haddan tashqari xolis turadi. Yozuvchi qahramonlari asar g'oyasini, badiiy topilmalarni kitobxon og'ziga chaynab solmaydi, hayotda to'g'ri yo'l topolmagan, beo'xshov yoki razil qahramonlarini asar nihoyasiga borib tugatmaydi, yaxshilamaydi. Ularni o'zining badiiy niyati amalgam oshirilgan darajada hayotdagiday qoldirib, kitobxon hukmiga havola etadi. Bu uslub asar va qahramon haqida mushohada yuritish uchun o'quvchiga keng imkoniyat qoldiradi. Sh.Xolmirzayev *"Bodom qishda gulladi"*, *"Tabassum"*, *"O'zbeklar"*, *"Qadimda bo'lgan ekan"*, *"Quyosh-ku, falakda kezib yuribdi"*, *"Ko'k dengiz"*, *"Navro'z"*, *"Xumor"*, *"Farzand"* singari hikoyalari bilan mana shu kichik janrning imkoniyatlari naqadar katta ekanini isbotlab berdi. Yozuvchi nasrning shu mo'jaz janrida inson tabiatiga xos turfa jihatlarni, ruhiy iztiroblarni, tuyg'ular tovlanishini butun murakkabliklari bilan ko'rsata oldi. Mazkur hikoyalari so'nggi bosqich o'zbek adabiyotining bu janrdagi ibratli namunalaridir.

Shukur Xolmirzayev realistik metodni ulkan imkoniyatlarga ega deb hisoblaydi. Yozuvchining fikricha, an'anaviy realizm absurd va boshqa yangicha ijodiy yo'nalishlardan ko'ra voqelikning, inson hayoti va shaxsining tovlanishlarini ifoda etishda beqiyos. Realizm boshqa ijodiy-falsafiy oqim va yo'nalishlarni, shu qatori, absurdga xos bo'lgan tasvir va talqinni ham o'ziga jo eta oladi. Uning 1990-yillarda e'lon qilingan *"Quyosh-ku falakda kezib yuribdi"* hikoyasi xuddi o'sha absurd yo'nalish va unda yozilgan asarlarga qarama-qarshi bitilgandek. Bu hikoyada ham mustabid tuzum inqirozi, hayot mashaqqatlari

girdobida sang`ib, chalg`ib, tushkunlikka yuz burgan shaxs kechinmalari qalamga olingan.

Mahoratli adiblar ijodida nafaqat so`z va jumlar, balki har bir fonetik va fonografik vosita bejiz qo`llanmaydi. Qahramonlar ruhiyatini ochib berish hamda jumalarga qo`shimcha ma`no qirralarini berishda fonetik vositalarning ham o`z o`rni bor.

Tilshunoslikning fonetika bo`limida nutq tovushlari o`rganilar ekan, u vazifasiga qarab, tekshirish obyektiga ko`ra bo`lib o`rganiladi. Nutqning fonetik qismlarini o`rganishga qarab fonetika ikki turli bo`ladi, ya`ni segmental va supersegmental fonetika. Nutq tovushlarining hosil bo`lishi va ularning xususiyatlarini o`rganuvchi fonetika segmental (segment – nutq bo`lagi) fonetika deyiladi. Segment birliklarga nutq tovushlari va bo`g`in kirar ekan, bunday birliklar morfema va so`zlar tarkibida ketma-ket keladi. Nutq tovushlaridan kattta bo`lgan birliklar esa supersegment birliklar deyiladi. Supersegment birliklarga urg`u va ohang kiradi. Bunday birliklar so`zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit aloqador bo`lib, ularni so`z, gap yoki nutqdan ajratilgan holda tasavvur qilib bo`lmaydi.<sup>12</sup> Shuning uchun ham tilshunos olim M.Mirtojiyev bu hodisalarni tahlil qilib, ustama hodisa deb nomlagan.

Ma`lumki, badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e`tibor qaratish zarur. She`riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she`riy asarda o`ziga xos jozibador ohang bo`ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo`llash natijasida erishiladi. Asosan, she`riyatda alliteratsiya (undoshlar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash), assonans (unlilar takrori) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho`zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so`zlarni noto`g`ri talaffuzini berish, tovush orttirish yoki tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta`minlanadi. Lekin tovushlarni uslubiy qo`llash bilan bog`liq qonuniyatlarni yozuvda aynan ifodalash

---

<sup>12</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – B. 18-19

imkoniyati cheklangan. Ammo talaffuzda hamda badiiy asarlarda bayon muvofiqligiga qarab fonografik vositalar yordamida erishish mumkin.

Til fikr anglatish quroli bo'lishi bilan birga, insonlarga hissiy ta'sir qilish vositasi hamdir. Bu ta'sir so'zlardagi asosiy (denotativ) ma'noga asoslangan qo'shimcha (konnotativ) ma'nolar vositasida amalga oshadi. Konnotativ ma'no komponentlarini tashkil qiluvchi "bo'yoqlar" fonetik vositalarda ham kuchli ifodaladi. Bular:

- nutq tovushlari bilan bog'liq ekspressivlikning aks etishi; so'zlarning tovush qiyofasini o'zgartirib aytish, so'zlarda tovush orttishi yoki tushirish, alliteratsiya orqali hayajon ifodalash va hokazo;

- baho komponenti – so'zda tasdiq yoki inkorni intonatsiya biln ifodalash;

- so'zda belgi (miqdor) darajasining kuchliligini bildiruvchi tovush cho'ziqligi;

- so'zlovchining shaxs va hodisalarga munosabatini ifodalovchi pragmatic ma'no, ya'ni geminatsiya yoki pauzalar orqali qo'shimcha bo'yoq ifodalash;

- nutqning vazifaviy uslublari bilan bog'liq qo'shimcha ma'no komponenti va boshqalar<sup>13</sup>.akustik-artikulatsion hamda prosodik (ritmik-intonatsion) xususiyatlarini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Fonostlistikada orfoepiya bilan bog'liq talaffuz stillarining vazifasini belgilash, nutq stillari, ayniqsa, badiiy nutq uslubida nutq tovushlari talaffuzining konnotativ ma'nolari, shuningdek, intonatsiya, pauza va urg'u kabi supersegment elementlarning ishlatilishi bilan bog'liq fonopoetik imkoniyatlarning uslubiy qo'llanishini tahlil va tadbqiq qilish bugungi kun o'zbek tilshunosligining eng dolzarb masalalaridan biridir.

Ammo fonopoetika muammolari Yevropa va rus tilshunosligida yetarlicha keng o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida esa fonopoetik vositalar va ularning nutqda qo'llanishi haqidagi fikrlar dastlab professor A.G'ulomov tomonidan aytilgan. Fonopoetik vositalar badiiy nutqda ritm, qofiya, radif, ohang uchun qo'llanishi akademik G'ani Abdurahmonov tomonidan alohida qayd etilgan. Yana

---

<sup>13</sup> Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol.fanlari nomzodi diss...avtoref. — Toshkent, 2008.

bir tilshunos olim A.Abduazizov “Fonopoetik vositalarning oʻrganilishiga doir” nomli maqolasida oʻzbek tili fonopoetik vositalarining oʻrganilish tarixi, hozirgi holati, vazifalari va bu sohada chuqur izlanishlar olib borish haqida professor oʻzining qimmatli fikrlarini bayon qilib oʻtgan. Grafik stilistika bilan fonografik stilistika fonopoetikaning tekshrish obyekti boʻlganligi uchun unda nafaqat segment va supersegment (intonatsiya, pauza, urgʻu) vositalrning ekspressiv xususiyatlari, balki ekspressiv nutqning talaffuz xususiyatlari ham oʻrganiladi.

Shuningdek, badiiy asarlarda turli xil kasb-hunar, turli xil xarakter va dunyoqarashga ega kishilarning his-tuygʻularini tasvirlash bilan birga, ularning ichki dunyosi, ruhiyati ham koʻrsatilib beriladi. Shuning uchun ham badiiy asarlarda til vositalari oʻziga xos tarzda ishlatiladi. Asarlarda yozuvchilar u yoki bu hodisalarning xabar qilishi bilan birga oʻquvchiha estetik va emotsional taʼsir koʻrsatishni ham maqsad qilib qoʻyadi. Chunki chunakam badiiy ijod mahsuli inson qalbini larzaga sola olishi kerak.

Ana shu xususiyatlarni hisobga olib mazkur ishda isteʼdodli adibimiz Shukur Xolmirzayev asarlarida ekspressivlikning ifodalanishi va til birliklarining badiiy uslub doirasidagi funksional xoslanishlari tahlil qilinganki, mazkur ish bu sohada shu paytgacha maydonga kelgan tadqiqotlarni maʼlum bir maʼnoda toʻldiradi. Estetik hodisa sifatida badiiy asar tilini oʻrganish asnosida muallifning individual uslubiy mahorati hamda uning badiiy asar yozishda til tizimi imkoniyatlaridan qay darajada foydalana olganligini aniqlashga ham eʼtibor qaratish nazarda tutiladi<sup>14</sup>. Shuni nazarda tutgan holda, biz magistrlik ishining dastlabki bobini fonetika va fonografiyadan boshlashga qaror qildik. Sababi Shukur Xolmirzayevning deyarli barcha asarlarida fonetik va fonografik usulida emotsional-ekspressiv holatlar juda koʻp boʻlganligini bu ish orqali koʻrsatib bermoqchimiz.

Fonetik uslubiyat nutqning taʼsirchanlik xususiyatini oshirishda nutq tovushlarining uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish usullarini kuzatadi. Fonetik uslubiyat nutq tovushlarining biri ikkinchisiga bogʻlanishidagi ekspressiv va ulubiy imkoniyatlarini, umuman, nutq tovushlarining asar tilini taʼsirchan qilishda vosita

---

<sup>14</sup> Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. – Toshkent:Fan, 2000. – B. 30.

bo`lib xizmat qila olish usullari imkoniyatlarini o`rganadi. Nutqda tovush va ohangdan foydalanish, ta`sirchanlikni kuchaytirish usullari turlichadir. Nutqni ekspressiv jihatdan ta`sirchan qilishda alliteratsiya, assonans, tovush takrori va uning xilma-xil shakllari va shu kabilar ahamiyatlidir. Unli va undosh tovushlarning fonetik jihatdan uyg`unlashib, takrorlanib kelishi nutqni ohangli va ta`sirli qiladi, til faktini esda saqlab qolishni osonlashtiradi<sup>15</sup>.

Fonetik usul bilan ekspressivlik yaratishda intonatsiyaning ahamiyati kattadir. Avvalo, uning mavjudligi gapning mavjudligidan darak beradi. Intonatsiyada gapning boshlanish va tugash chegaralari ko`rinadi. Intonatsiya gapning shakllanishida zaruriy vosita hisoblanadi. Intonatsiyaning belgilari biror bir aniq tilning ichki qonuniytlariga muvofiq turli funksiyalarni bajaradi. Uning vazifalaridan biri so`zlovchining voqelikka bo`lgan munosabatini ifodalash, shu bilan bir qatorda ma`noni kuchaytirish, bo`rttirishdir.

Intonatsiyaning gapni tashkil qilishda ishtirok etuvchi eng muhim vositasi urg`u va melodikadir. Mana shu intonatsion elementlar munosabatlarining turlicha bo`lishidan fonetik usulda ekspressivlikning turli ko`rinishlari ham yuzaga keladi.

Fonetik usul bilan ekspressivlik ifodalash o`zbek tilida boshqa usullarga nisbatan eng faol, eng universal usul hisoblanadi.

Tilshunos olimi Gulnora Yaxshiyeva o`z tadqiqotida fonografik vositalarni ikki guruhga ajratib tahlil qilishni ma`qul ko`radi. Unga ko`ra:

- unli tovushlarga xos fonografik uslubiy xususiyatlar;
- undosh tovushlarga xos fonografik uslubiy xususiyatlar.

Ma`lumki, har bir so`zda ikki tomon – ichki va tashqi tomon mavjud. So`zning ichki tomoni ma`nosi, tashqi tomoni bu – fonetik tomoni bo`lib, uni shakllantiruvchilari tovushlar hisoblanadi. So`zning tashqi tomoni bo`lib uni shakllantiruvchi tovushlar kompleksi tasodifiy tovushlar yig`indisi emas, balki inson nutq tovushlari kompleksidan iborat. Nutq tovushlari so`zning tashqi tomonini shakllantiribgina qolmay, ularning ma`nolarini farqlashga, so`zlarning

---

<sup>15</sup> Shomaqsudov A, Rasulov I, Qo`ng`urov R, Rustamov H. O`zbek tili stilistikasi. –Toshkent: O`qituvchi, 1983.- B.7.

o`zaro bog`lanishini ta`minlovchi grammatik ko`rsatkichlar va gaplarning vujudga kelishida moddiy material vazifasini bajaradi.

Nutq tovushlari ham nutq organlariga bog`liq ravishda turlicha talaffuz etiladi va eshitiladi. Fonopoetik jihatdan nutq tovushlarining talaffuzidagi emotsional-ekspressivlik va akustik ya`ni eshitib ta`sirlanish tomonlarini o`rganish muhim.

Tovushlarning fonopoetik vazifasi haqida so`z yuritilganda, ularning artikulation-akustik xususiyatlaridan qaysilari zarurligini payqab olish oson emas. Ko`pincha unli tovushlarning ekspressiv jihati kuchli deb qaraladi va ularning fizik xarakteristikasidagi ton, oberton, tovush balandligi va cho`ziqlik bunda asosiy xizmatni bajaradi<sup>16</sup>. Ko`p tillarda unllarning cho`ziqligi emotsional-ekspressivlik vazifasini bajaradi. Ayniqsa, "I" unlisi ovoz tonining past va yuqori bo`lishi uchun xizmat qiladi.

Badiiy asarlarda ruhiy holatlarni yozuvda ifodalash o`ziga xos murakkabliklarni keltirib chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo`lish, xafa bo`lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so`roq, ta`kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo`llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – fonografik vositalardan foydalanadilar<sup>17</sup>.

**1. Unlilarni birdan ortiq yozish.** Bunda unlini cho`zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me`yordan ortiq yoki kam ekanligini ifodalashda foydalanishi ta`kidlanadi.<sup>18</sup> Shuningdek badiiy matnda unlilarni birdan ortiq yozish usulidan qahramonning biror nimadan hayratlanishi, taajjubga tushishi kabi holatlarni ifodalashda foydalaniladi. Shukur Xolmirzayev hikoyalarini tadqiq qiladigan bo`lsak, bunga ko`plab misollar topish mumkin:

1. Jahl: – *Yo`qo-ot! Yo`qot deyapman senga! Jo`jalarni yeb qo`yadi*  
(*"Saylanma"*)

<sup>16</sup> O`rinboyev B., Qo`ng`urov R., Lapasov J. Badiiy tekstning lingvistik tahlili.-T.,1990. – B.34.

<sup>17</sup> Yo`ldoshev M. Badiiy matn tahlili asoslari. –Toshkent, 2010. – B.46.

<sup>18</sup> Qarang: Abdullayev A. O`zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi.-Toshkent: Fan, 1983.

2. Kuchaytirish: – ...Menga **juda-a** yoqib qoldi... (“Saylanma”)

3. Belgining ortiqqligi: - *Kattalar to`ng`illashib, Jabbor polvonning “shu uli ko`-o`p mahmadona chiqqan”ini aytib, gap ma`qullay boshlashdi.*<sup>19</sup> (“Saylanma”, 136-b.

4. Ta`kidlash: - **Ho-ozir** kirdilar. Telefonda gaplashmoqchiyanlar (“Saylanma”, 108-b.)

So`z bo`g`inlarida ishtirok etmagan alohida, yakka holda olingan birgina unli ham cho`zib talaffuz qilinishi mumkin. Bu esa fonopoetik jihatdan bir so`zdagi unli tovushlarni uning turli bo`g`inlarida cho`zib talaffuz qilinishi ham ahamiyatlidir. Masalan:

1. Quvonch: – **He-e**, uchaveringlar! (“Saylanma”, 103-b.)

2. E`tiroz: – **O`-o`, yo`-o`q!**, - dedi qorovul (“Saylanma”, 108-b.)

3. Ta`kid: ...Obidjon esa: –**Rahma-at**, – dedi (“Saylanma”, 108-b.).

4. Taajjub: – **A-a**, shundaymi? Men xato eshitibman. (“Saylanma”, 108-b.).

Ma`lumki, unlilar sof ovozdan iborat bo`ladi. Shuning uchun ularda ohangdorlik kuchli bo`ladi. Unlilar og`iz bo`shlig`ida to`siqqa uchramagani sababli ularni istagancha cho`zib talaffuz qilish mumkin. Lekin nutq sharoiti talab qilgan vaqtga nisbatan ortiqcha cho`ziqlik fonemaning ijtimoiy qimmatini pasaytiradi, ya`ni ayrim holatlarda so`zning ma`nosi anglashlmay qoladi. Badiiy tasvirda personaj nutqida unli tovushlarning turlicha talaffuz qator konnotativ ma`nolarni hosil qiladi.

Agar biror so`zdagi unli va undosh tovushlar matnga konnotativ ma`no yuklash maqsadida birgalikda takrorlanib talaffuz qilinsa, so`zdagi bo`yoq yanada kuchayadi, bunda tovushlarning nutqiy cho`ziqligi uzoq davom etadi. Bu holat asar qahramonining ichki kechinmasi, uning ruhiy tushkunligi, iztirobi, achinishi kabilarni real voqelarda aks ettiradi.

–**Yo`-o`q**, bolam...o`lim – haq. (“Tabassum”)

---

<sup>19</sup> Холмирзаев Ш. Сайланма.—Тошкент: Шарк, 2000, II жилд. –Б.136.

Ushbu gapda ham og'ir kasalga uchragan Jalil otaning umidsizlik ahvoli tasvirlangan. Ayrim o'rinlarda unlining bunday talaffuz qilinishi so'zlovchining tinglovchiga bepisandligi, mensimasligi kabi salbiy tuyg'ularini ham ifodalaydi:

*-E-e! Baqqa ke. Ustnga nimadir il.* (“O'zbek xarakteri”)

Tovushlarning bunday talaffuz qilinishi orqali anglashilgan qo'shimcha ma'no nozikliklari kitobxonga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Fonografik usulda konnotativ ma'no kuchli ifodalanadi. Chunki bu usulda asar qahramonlarining ruhiy holati, tovush talaffuzidagi o'ziga xosliklar, ovozning miqdoriy belgisi aniq ifodalangan bo'ladi.

Unli fonemalarda ifodalangan tovush variantligida uslubiy imkoniyat mavjud bo'ladi. Boshqacha aytganda, qayerda nutqiy tanlanish bor ekan, u yerda uslubiy bo'yoqdorlik kuchli ifodalangan bo'ladi. Bu hodisani to'la anglagan so'z san'atkorlari o'z asarlari tilini boy va rang-barang qilishga intiladilar.<sup>20</sup>

Keltirilgan misollarga e'tibor qaratilsa, “i”, “o”, “e”, “a” unlilari cho'zib talaffuz qilingan. Bu cho'ziqlik yozma nutqda ularni takrorlash va orasiga chiziqcha-chiziqcha qo'yish orqali berilgan. Ochiq bo'g'inlardagi unlilarning cho'ziq talaffuzi so'zda ifodalangan ma'no belgi darajasining intensivligini ham ko'rsatadi. Matnda unli tovushlarni cho'zib talaffuz qilingan so'zlarda qahramonning ichki kechinmasi, ruhiy tushkunligi, iztirobi, achinishi bevosita o'z ifodasini topgan. Shukur Xolmirzayev o'z hikoyalarida unli tovushlarning cho'zilish holatini grafik jihatdan ular orasiga chiziqcha belgisini qo'yish orqali aks ettirgan. Bunday uslubiy ahamiyatga egabo'lgan turli belgilar boshqa mualliflar asarlarida yoki she'riy matnlarda boshqa xil grafik belglar bilan bilan ham berilishi mumkin.

Fonografik stilistikada qahramon nutqidagi ma'lum bir unli tovushni so'zning qaysi o'rnida, ochiq yoki yopiq bo'g'inlardagi cho'zilishi va unda ifodalangan emotsionallik, uslubiy bo'yoq ham farqlanadi. Aynan shu o'rinda unli harf yozuvda qanday belgi vositalar yordamida berilganligi ham amaliy ahamiyat

---

<sup>20</sup> Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol.fanlar nomzodi diss...avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 9.

kasb etadi. Bunda soʻzlovchining hayratlanishi, taajjubi, oʻyga tushishi kabi qoʻshimcha maʼnolar oʻz aksini topadi. Hikoyalardagi fonografik vositalarni oʻrganish jarayonida shunga amin boʻlamizki, yozuvchi oʻz qahramonidagi afsusni, achinishni, iztirobni, eng ogʻriqli vaziyatlarni va qahramonning fojeaviy holatnin berish maqsadida koʻpincha ochiq boʻgʻinlardagi unli harflarning soʻnggi boʻgʻini choʻzishga harakat qilgan:

- **I-i**, - *Umida unga achinib qaradi* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”)

- **Vo-o!** – *yubordi. Jalil oʻrnidan turib oʻtirdi* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”)

Yozma nutqda biror soʻzdagi unlining choʻzilish darajasi grafik jihatdan shu unlini bir necha marta takror yozilganligi bilan ham belgilanadi. Unli tovushlarni choʻzish, shu unli ishtirok etgan soʻzlarning denotativ maʼnosiga bevosita bogʻliq holda qoʻshimcha konnotativ maʼno ifodalaydi va bu maʼno bevosita shu soʻzning paradigmatik munosabatida roʻyobga chiqadi.

Koʻrinadiki, unli tovushlarning choʻzib aytilishi bilan bogʻliq qoʻshimcha maʼno boʻyoqlari soʻzlar paradigmatic va sintagmatik munosabatlarga kirishganda yanada aniq ifodalanadi. Shuningdek, sintagmatik munosabatda unli tovushlarni soʻzning qaysi boʻgʻinida choʻzib talaffuz qilinishi ham nutq uslublari bilan bogʻliq ravishda qoʻshimcha emotsional-ekspressivlik hosil qilishi mumkin.<sup>21</sup>

G.Yaxshiyeva tasnifiga koʻra, undosh tovushlar oʻzining hosil boʻlish oʻrni va usuli hamda tovush miqdorining oz yoki koʻpligiga koʻra unli tovushlardan keskin farqli imkoniyatlarga ega. Shunga asoslangan olimlar unli tovushlarga nisbatan undosh tovushlarda fonopoetik imkoniyat ancha yuqoriligini taʼkidlaydi. Undosh tovushlarni talaffuz jarayonida ikkilantirish, takrorlash, tushirib qoldirish, soʻzda ularning oʻrnini almashtirish va boshqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayrim asar qahramonlarining undosh talaffuzlarni choʻzib talaffuz qilishida ham oʻziga xos xarakterli xususiyat mavjud. Chunki undosh tovushlarni choʻzib talaffuz

---

<sup>21</sup> Yaxshiyeva G. Oʻzbek tilida fonografik uslubiy vositalar. fil.fan nomzodi diss...avtoref.—Toshkent, 1996. – B. 14.

qilish orqali qahramonning turli xil holati, o'ziga xos xarakterli xususiyati namoyon bo'ladi.

Talaffuzda undosh tovushlarni ikkilantirib aytish, takror qo'llash, tushirib qoldirish, orttirish kabilar fonopoetik ahamiyatga ega bo'lib, turli xil qo'shimcha ma'nolar hosil qiladi. Nutqda ularni me'yoridan ortiq talaffuz qilish ma'noning buzilishiga olib keladi, nutqiy g'alizlikka sababchi bo'ladi. Ammo boshqa bir holatda esa, ya'ni bir undoshni atayin ikkilantirib talaffuz qilish va yozish uslubiy ahamiyat kasb etadi. Undosh tovushlarning cho'ziqligi bir tipdagi undoshlarning takrorlanishi va grafik jihatdan ifodalanishi orqali ro'yobga chiqadi.<sup>22</sup>

Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, unli va undosh tovushlarning cho'zilishi og'zaki nutqda ularni qo'sh undosh holatiga keltirib talaffuz qilish, yozma nutqda esa ikkilantirib yozish orqali ro'yobga chiqariladi. Bu usulni quyidagi konnotativ ma'nolar orqali ifodalash mumkin:

*-Qani seni rayon gazetang? **Ke-etdi** enasinikiga...-- keyin tomoq qirib qo'ydi.* (“Saylanma”dan. 229-bet)

*- **Bo'ldi-i!** – bo'kirib yubordi O'sar.* (“O'n sakkizga kirmagan kim bor”)

*- **Dada-a!.. Xoli-iq!** .* (“O'n sakkizga kirmagan kim bor”)

Yuqorida Shukur Xolmirzayev hikoyalaridan keltirilgan misollarni ko'radigan bo'lsak, unlilarni cho'zish orqali birinchi gapda kesatq, ikkinchi gapda alam, uchinchi gapda esa qo'rquv ifodalanganligini bilamiz. Bu denotative ma'nolar asar qahramonlarining nutqini jonlantirishga xizmat qilgan.

**2. Undosh tovushlarni ikkilantirish.** Undosh tovushlarni so'zning turli o'rinlarida ikkilantirish ham stilistik qimmatga ega. So'z boshidagi undosh tovushning ikkilantirilishi personajga xos nutqiy kamchilik yoki uning o'ta hayajonlanganligini ifodalasa, so'z oxiridagi undoshning birdan ortiq takrori shu so'zning cho'ziq talaffuzini bildiradi.<sup>23</sup>

<sup>22 22</sup> Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol.fanlar nomzodi diss...avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 9..

<sup>23</sup> Yaxshiyeva G. O'zbek tilde fonografik uslubiy vositalar. fil.fan nomzodi diss...avtoref.—Toshkent: Fan, 1996. 23-bet

Undosh tovushlarni soʻz oʻrtasida ikkilantirib talaffuz qilish va yozish hodisasi maʼno kuchaytirish bilan birga ayrim holatlarda satiric vaziyat yaratish uchun ham xizmat qiladi. Undoshlarning oʻrnini almashtirib talaffuz qilish natijasida personajning madaniyat darajasi yoki biror sheva vakili ekanligini yaqqol koʻrsatadi. Soʻzlashuv uslubida ayrim ruscha soʻzlarning talaffuzi boshqacharoq, yaʼni fonetik oʻzgarishga uchragan holda aytiladi. Chunki harbir millat oʻzga til birliklarini oʻzining artikulyatsion bazasiga moslaydi. Badiiy tasvirda yozuvchilar bunga diqqat va eʼtiborini qaratadi. Badiiy nutq taʼsirchanligini oshiruvchi fonografik-stilistik vositalardan biri tovush yozuvidir. Tovush yozuvi vositasida asarda tasvirlanayotgan voqea-hodisalar kitobxon koʻz oldida jonli qilib beriladi. Bularning har ikkalasida ham tovush va maʼno birligi asosida obraz yaratiladi. Alohida tovushlar oʻzicha maʼno anglatmaydi va anglatishi mumkin emas. Masalan, alliteratsiya hodisasida nutq tovushlari maʼlum bir holatda takrorlanib kelishi bilan maʼnoga taʼsir etadi. Tovush va maʼno dialektik birlik hosil qiladi. Bu dialektik birlik nutq jarayonida ayrim soʻzlar soʻzlovchining emotsional holatini bershi uchun xizmar qilishda va ayni zamonda tinglovchi ham shu hodisani toʻliq angalshida koʻrinadi. Demak, oʻz-oʻzidan maʼlumki, undosh tovushlarning choʻzilishi ogʻzaki nutqda ularni qoʻsh undosh holatiga keltirib talaffuz qilish, yozma nutqda esa ikkilantirib yozish orqali roʻyobga chiqariladi. Bu usulni quyidagi konnotativ maʼnolar orqali ifodalash mumkin:

Masalan:

**-Jud-dayam-da!** – *Qismatillo toʻrt-besh odim gʻizillab ketgach, burilib dedi: --Chiqay, kelay... Aytib beraman sizlarga! Juda qiziq gap! Ey, Strilok, mensiz quritib qoʻyma...* (“Saylanma”dan. 262-bet)

- *Oʻzlarigayam!* – *dedi unga burulib. Keying gaplar beixtiyor ogʻzidan chiqib keta boshladi.* – **Voy-y,** *muni qarang-a, ukaboy... Navroʻz! Axir...* (“Saylanma”, 106-bet)

- *Jiyanli boʻldingiz, ogʻajon!*

- **Q-qanaqa jiyanli?** (“Kimsasiz hovli” 28-bet)

- *M-mayli, -- dedi u qisinib.*

- *Gap shu. Biz kutamiz! ("Saylanma", 425-bet)*

Berilgan misollarning birinchisida undosh tovush ikkilantirish orqali kuchaytirish, ikkinchi misolda hayrat, uchinchisida hayajon, oxirgi misolda esa tortinish hissi ifodalangan. Bu gaplardagi undosh tovush ikkilantirishlari o'zidagi emotsional bo'yoqni ikki karra oshirib ko'rsatishga xizmat qilgan.

Talaffuzda undosh tovushlarni ikkilantirib aytish, takror qo'llash, tushirib qoldirish, orttirish kabilar fonopoetik ahamiyatga ega bo'lib, turli xil qo'shimcha ma'nolar hosil qiladi. Nutqda ularni me'yoridan ortiq talaffuz qilish ma'noning buzilishiga olib keladi, nutqiy g'alizlikka sababchi bo'ladi. Ammo boshqa bir holatda esa, ya'ni bir undoshni atayin ikkilantirib talaffuz qilish va yozish uslubiy ahamiyat kasb etadi. Undosh tovushlarning cho'ziqligi bir tipdagi undoshlarning takrorlanishi va grafik jihatdan ifodalanishi orqali ham ro'yobga chiqadi. Fonopoetik jihatdan so'zdagi bir undoshning miqdoriy takrori u ifodalayotgan ekspressiv bo'yoq miqdori darajasini belgilaydi. Chunki so'zdagi konnotativ ma'no fonetik vositalar bilan ham darajalanib borish xususiyatiga ega. Undosh tovushlarni so'zning turli o'rinlarida ikkilantirib talaffuz qilish ham uslubiy ahamiyatga ega. So'z boshidagi undosh tovushning ikkilantirilishi o'ta hayajonlanish yoki personaj nutqiga xos kamchilikni ifodalasa, so'z oxiridagi birdan ortiq takrori shu so'zning cho'ziq talaffuzini ko'rsatadi.

Har qanday nutqning jozibadorligi, obrazlilik uslubi vositalarining to'g'ri tanlanganligiga bog'liq. Fonografik vositalarning qo'llanish darajasi me'yordan oshsa, nutq quloqqa g'aliz eshitiladi, tinglovchining g'ashiga tegadi. Shuning uchun ham turli fonetik vositalardan foydalanishda, birinchi navbatda adabiy me'yor talablarini hisobga olish kerak. Shu bois kerakli fonetik vositalarni tanlayotganda matnning mazmuni, uni qanday uslub va janrga tegishli ekanligi, unda qaysi davr tasvirlanayotganligini e'tiborga olish zarur.

Ma'lumki, nutq tovushlarining uslubiy xususiyatlari haqida so'z yuritilganda, ko'pincha, anafora, epifora va alliteratsiya usullari haqida ham to'xtalib o'tiladi. Unli va undosh tovushlar takrori, bo'g'in takrori poetik nutqda,

ayniqsa, xalq og`zaki ijodi namunalarida ko`p uchraydi. Fonetik vositalarni ataylab takrorlash orqali so`z san`atkorlari o`z tasvir bayonining kuchini oshiradilar, his-tuyg`ularini bo`rttirib ko`rsatadilar.<sup>24</sup>

Aytib o`tilaganidek anafora, epifora, alliteratsiya kabi usullar poetik nutqda ko`proq ishlatiladi. Shukur Xolmirzayev ijodida tovushlar bilan bog`liq hodisalar janr talablariga ko`ra. Yuqoridagi gaplarda ko`rib o`tganimizdek she`riy nutqdan farqli qo`llangan.

Badiiy nutqning ohangdorligi va ta`sirchanligini ta`minlashda alliteratsiyaning o`rni beqiyosdir. Bu hodisa nasriy asarlarda ham kuzatiladi. Xususan, Shukur Xolmirzayev asarlarida ham to`liq yoki qisman alliteratsiyaga ko`plab misollar topiladi: 1. *Tip-tip tomchi tovushi keldi. Jamshid jiyrinning silliq sag`ridan sirpanib tushib unga ro`para keldi.* 2...*qoracha yuzi yog` surganday yiltiroq yetti yoshlardagi qizcha chiqdi...* 3. *Bu uy, bu bog` sening ham uying, bog`ing. Bundan begonasirama , o`g`lim.* (“ O`n sakkizga kirmagan kim bor” )

Yuqoridagi gaplardagi undosh tovushlar takrori badiiy matnning musiqiylikni ta`minlash bilan birga , fikrning ekspressivligi ta`minlagan.

Hozirgi o`zbek tilida yaratilgan nasriy asarlarda fonetik usul yordamida ma`no kuchaytirishning quyidagi usullari mavjud:

- 1) unlini kuchli talaffuz qilish (dinamik urg`u)
- 2) unlini cho`zish (kvantitativ urg`u)
- 3) undoshni qavatlash (geminatsiya) orqali ma`no kuchaytirish.

“... stilistika til birliklaridan qaysi biri u yoki bu stilda, yozma yo og`zaki nutqda ko`proq ishlatiladi, degan masala bilan ham shug`ullanadi. Bundan tashqari, stilistikaga fikr va maqsadni ifodalashda til vositalarining to`g`ri tanlangani yoki tanlanmaganligini aniqlash hamda shu til vositalarini maqsadga muvofiq tanlash va ishlatish yo`llarini belgilash vazifalari yuklatiladi.<sup>25</sup>

---

<sup>24</sup> Haydarov A. BAdiyy tasvirning fonostilistik vositalari: filol.fanlari nomzodi diss... avtoref.—Toshkent, 2008. 10-bet.

<sup>25</sup> Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo`ng`urov R., Rustamov H. O`zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O`qituvchi, 1983. – B. 6.

Ekspressivlik hosil qiluvchi bu usullarning har biridan istagancha foydalanish mumkin bo'lmaydi. Bu usullardan qaysi birining qachon qo'llanishi mumkin yoki mumkin emasligi ma'no kuchaytirishning qanday hodisaga nisbatan bo'lishi va boshqa obyektiv sabablar bilan bog'liq holda bo'ladi. Mana shu sabablarga ko'ra bu yo'llar bilan ekspressivlik ifodalashning o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanish doirasini alohida-alohida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Og'zaki nutq oqimida ayrim so'zlarning talaffuzi, ohangi, tez-sekinligi, qattiq yoki yumshoq aytilganligini yozma nutqda aynan berish maqsadida ular orfografiya qoidalariga zid ravishda turli grafik belgi va shakllarda, hatto bo'yoqlarda yoziladi. Uslubiy ahamiyatga ega bo'lgan bunday hodisalarni o'rganish ham diqqatga sazovordir.

Ko'rinadiki, fanimizda fonopoetik, fonetik uslubiy vositalarni nutq shakllari va har bir nutq shakli vositalari xususiyatlariga ajratish mumkin:

a) og'zaki nutq talaffuzining uslubiy xususiyatlari va imkoniyatlari, ya'ni tom ma'nodagi fonetik stilistika (yoki fonopoetika);

b) og'zaki nutq talaffuzida uslubiy xususiyatlarini yozma nutqda grafik (imloviy) vositalar bilan aks shakllari va har bir nutq shakli vositalari xususiyatlariga ajratish mumkin: ettirish, ya'ni tom ma'nodagi grafik (imloviy) stilistika<sup>26</sup>.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, so'zda denotativ va konotativ ma'no mavjud. Ya'ni aloqa jarayonida aqatgina xabar anglashilmasdan, so'zlovchining his-hayajoni, tinglovchiga nisbatan subyektiv munosabati aks etadi. O'zbek tilshunoslarining yuqoridagi fikrini rad etmagan holda shuni aytish mumkinki, kommunikatsiya har bir gap, so'z va hatto tovushning tanlanishi ham bevosita inson ruhiyati bilan bog'liq ekanligini yuqoridagi misollar orqali ko'rib o'tdik. Lekin ba'zan buni hatto o'zimiz ham sezmaymiz. Bu hodisa go'yoki, g'ayriixtiyoriy hodisaga o'xshaydi. Ammo chuqurroq tahlil qilinsa, bu jarayon

---

<sup>26</sup> Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 7.

uzluksiz ong osti qatlamlarida miyaning bevosita buyruqlari asosida amalga oshayotganini ko`ramiz. Bu holatlarni yuqoridagi kabi badiiy matnlarda kuzatish ancha samara beradi. Har bir so`zda tovush va ma`no uyg`un bo`lsa, bunday so`z yorqin, yashovchan, o`zining mustahkam o`rniga ega bo`ladi va bunday so`zlar so`zlashuv, badiiy uslubda keng qo`llaniladi. Chunki tovushlar so`z ma`nosini yanada bo`rttiradi, emotsional bo`yoqdorligini oshiradi. Har bir ijodkorning tuyg`ulari faqat o`zigagina ayon bo`lgan olamda ong orqali namoyon bo`ladi. Unga mos tovushlar topish esa, bevosita yozuvchining so`zdan va tovushlardan foydalanish mahoratiga bog`liq. Qaysi tovushga qanday ma`no yuklash esa ijodkorning voqelikni ong va qalb prizmasidan qay tarzda o`tkazishiga bog`liq<sup>27</sup>.

Kuzatilgan misollar orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, demak, fonografik stilistik vositalar badiiy tasvirda muhim ahamiyat kasb etar ekan. Ular narsa, hodisa va voqealar haqida tushuncha ifodalash bilan birga so`zlovchining turli emotsional-ekspressiv holatini, uning voqea-hodisalarga turli xil munosabatini yanada aniqroq, ravshanroq va o`zgacha bir ottenka orqali ifodalshga xizmat qilishini ko`rib o`tdik. Demak, fonografik-stilistik vositalardan o`rinli foydalanish badiiy ta`sirchanlikni oshirishga xizmat qilishini ko`rdik.

**So`zlarni noto`g`ri talaffuz qilish.** Og`zaki nutqda turli sabablarga ko`ra ayrim so`zlar, asosan, o`zlashma so`zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud. Bunday xato so`zlovchining o`zlashgan so`z imlosini to`g`ri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paronimlarni farqlamaslik natijasida yuzaga keladi, deb izohlash mumkin. Badiiy asarda bu usuldan qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og`zaki – jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalaniladi.

Bunga Sh.Xolmirzayev hikoyalaridan bir qancha misollar keltirishimiz mumkin:

---

<sup>27</sup> Alponova Sh. Inson ruhiyatini aks ettirishda fonetik vositalarning o`rni // O`zbek tili va adabiyoti, 2009. № 4. – B. 81.

- **O`ris**...shu, shu... *Shuning siyosati yetdi boshimizga...* (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”)

- E, **piskulturam** chiqib turibdi, -- dedim. .(“O`n sakkizga kirmagan kim bor”)

- Rahmat-e, **nachaylik** bobo... *Xo`p adolatli ish qildingiz-da. Otangizga rahmat...* (“Saylanma”, 435-bet)

...**Oblohi akbar!** – *hamma birvarakayiga fotiha o`qidi.* .(“O`n sakkizga kirmagan kim bor”)

**Melisaxona** – *yo`l ayrilishidan chaproqda. E-eski melisaxonada.* .(“O`n sakkizga kirmagan kim bor”)

Yuqoridagi “ o`ris, piskultura, nachaylik, melisaxona, oblohi akbar” so`zlariga e`tibor qaratadigan bo`lsakshunday bir xulosaga kelish mumkin: demak, so`zlarning talaffuzi so`z boshida, so`z o`rtasida hamda so`z oxirida buzilishi mumkin. Haqiqiy real qahramon darajasiga ko`tarish, aynan o`sha qahramonni individual tanishtirish maqsadida ham bunday so`zlardan foydalanish mumkin.

– *Soatim yo`q, xola! Manda soat nima qilsin. **Po`ristoy** odam bo`lsam.*

– *Kechirasiz, o`rtoq **nachaynik**... Men sizni...*

*Bitta bomba **milyon** turadi. Shuncha pulni tinchlik yo`lida ishlatsa o`ladimi esa, Hotam-xasis xo`rsinib qo`yibdi. – Nima, mo`ysafidlar “palonchi **prapisir**” bo`kib uxlasinlar, deb kutib o`tirishi kerakmi? Namozdan chiqib to`g`ri oshga kelaveradi-da!*

*O`n besh **prasanmi**, yigirma **prasanmi**, mayli-da! Bo`lmasa sotuvchilar maoshni qayerdan olsin?*

Bu misollarni tahlilga tortadigan bo`lsak, o`z-o`zidan ayonki, “**prostoy, nachalnik, million, professor**” kabi so`zlarning buzib talaffuz qilinishi natijasida, asosan, emotsional-ekspressiv maqsad ko`zlangan. Bunday so`zlarx xuddi sheva so`zlar kabi o`sha jarayonni, koloritni aniqroq tasvirlashga hamda qahramonlar nutqini iloji boricha xalqqa yaqin bo`lgan, xalq tushunadigan ibora va so`zlardan olinishiga sababchi bo`lgan.

*Bo'sh vaqtim bo'ldimi, duch kelgan **aptobus**ga chiqaman. Shaharni aylanaman. Misol uchun **aptobusda** ketyapman. Ko'rib qolamanki, bekatda bir chol alanglab turibdi. ("O'n sakkizga kirmagan kim bor" kitobidan.)*

*- Lekin **kinoapishalarni** birov o'qisa darrov yodimda qoladi.*

*- E! senga **milisa** chaqirish kerakmi? – dedi Husan Keldiyev. Kerak bo'lsa **milisani** ishiniyam o'zimiz **qip** qo'yamiz.*

*Ertalab parka kelsam, bitta tanish **shopir**: "Ko'zing sarg'ayibdi, medpunktga kir", deb qoldi.*

*-Ha, men **ninarmalni** ekanman, - dedi Sulton.*

Berilgan gaplarda chet tillaridan kirib kelgan so'zlarning o'zbek qahramonlari tomonidan buzib aytilish holatlari kuzatilgan. Qahramon "tili"ning kitobxonga yaqin va "yuqimli" bo'lishi ta'minlangan. Ko'rinadiki, adib yozayotgan asarida xoh u o'zbek millatiga mansub bo'lsin, xoh boshqa millat vakili bo'lsin ularning so'zlashuv tarzini bilsagina, sheva so'zlaridan xabardor bo'lsagina, ko'zlagan maqsadiga erisha oladi. Har bir qahramonning individual xarakterini ochib berishda ham, uning til xususiyati birinchi navbatda turadi. Shukur Xolmirzayev ham xuddi mana shunday xarakter ochib berishga juda usta adiblardandir. Bu esa o'zbek tilida yanada sheva so'zlarining variantlilikiga, lug'at sostavining yanada boyishiga ham ba'zida sababchi bo'lmoqda. Bundan tashqari hikoya qahramonlarining nutqida berilgan so'zlar orqali hikoyaning ta'sir kuchaytirilgan.

## **1.2 Supersegment birliklar fonopoetikasi**

Ma'lumki, nutqimizning mukammal bo'lishida fonetik jihatdan segment va supersegment elementlar deyarli bir xil ishtirok etadi. Ammo ular nutqda qo'llanishi jihatidan turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Intonatsiya, pauza va urg'u kabilar supersegment elementlar bo'lib, ular o'ziga xos semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega. O'zbek tilshunosligida ularning bunday uslubiy xususiyatlarini ilk bora Gulnora Yaxshiyeva o'rgangan. U o'zining ilmiy tadqiqotida intonatsiyaning o'z ma'nosidan tashqari konnotativ ma'no ifodalashi

haqida fikr yuritgan: Nutqda supersegment elementlar, asosan, uchga bo'linadi: intonatsiya, pauza, urg'u. Bularning har biri o'ziga xos semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlarga ega. Jumladan, fonopoetik jihatdan intonatsiyaning logik yoki logik-ekspressiv hamda emotsional ekspressiv ko'rinishlari ahamiyatli bo'lib, ular orqali so'zlovchining ruhiy holati, kayfiyati, hissiy tuyg'usi, sevishi, hayrat, ajablanish, erkalash, qo'rqinch, g'azab, qayg'urish kabi qator konnotativ ma'nolar ifodalanadi. Bunday qo'shimcha ma'no bo'yoqlari nutqni jonlantirish va ifodali qilishga yordam berishini aytib o'tgan.

Nutq uslublarining deyarli barchasida intonatsiya asosiy vazifani bajaradi. Ammo badiiy uslubda intonatsiyaning konnotativ ma'no ifodalash darajasi nihoyatda kuchlidir. Og'zaki nutqqa xos bo'lgan intonatsiya, alohida bir sistemani hosil qiladi. Bu sistemani nutq melodikasi va ritmi, nutq tezligi va tembri, logik urg'u kabilar tashkil qilib, doimo nutq tarkibida yaxlitligicha yashaydi. Nutqiy aloqa jarayonida intonatsiya asosan ikki vazifani bajaradi:

- nutq oqimining ma'no bo'laklarga ajratish va shu asosda yangi mazmun ifodalash. Bunda nutqiy pauza ham muhim rol o'ynaydi.

- nutqda emotsional ottenkani ifodalaydi. Bu ottenkalar o'ziga xos uslubiy ma'no kasb etadi<sup>28</sup>.

*Assalomu alaykum!.. Rahmat. Yo'lda tushaman. Termizga yetmasdan. Statsionarga boryapman. ("O'n sakkizga kirmagan kim bor")*

Mantiqiy urg'uning joylashish tartibi ham ketma-ket, bu ta'sir kuchini yanada oshirishga, uning ya'ni, hikoya qahramonining shu zaylda, bir xilda ketishiga yanada kuchli ta'kid berish orqali logik urg'udan foydalanilgan.

Ohang ya'ni intonatsiya ham tilda har xil sintaktik, ekspressiv va emotsional ma'nolarni ifodalovchi murakkab hodisadir. Frazalar urg'usi, melodiya, ritm, intensivlik, temp kabi prosodik elementlarning birligi ohangni tashkil etadi. Bu prosodik elementlarning har biri ohangning komponenti yoki parametrik deb yuritiladi. Melodiya va fraza urg'usi ohangning birlamchi, qolgan elementlar

---

<sup>28</sup> Yaxshiyeva G. O'zbek tilida fonografik uslubiy vositalar. filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent. 1996. – B. 7.

ikkilamchi komponentlari hisoblanadi<sup>29</sup>. Yanada soddaroq qilib aytadigan bo'lsak, intonatsiya so'z va gapning libosi bo'lib, u til va nutq birliklarining cheksiz imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradi. Intonatsiya nutqiy jarayonda, eng avvalo, ta'sir etish vositasi sifatidagi xususiyatini namoyon qilar ekan, bunda eshitalish jihatidan tovushning balandligi yoki pastligi farqlanadi. Yana bir tomoni borki, uslubiyligi jihatidan intonatsiya ta'sir etish vasifasidan tashqari ma'lumot berish vazifasini ham bajaradi. Jumladan, intonatsiyaning o'zgarib borishi so'zlovchining ruhiy holati haqida ma'lumot beradi. So'zlovchi nutqining mazmuni uning maqsadi ifodasi sifatida shakllanadi, intonatsiya esa mazmunning obyektiv va subyektivligi haqida ma'lumot berishi to'g'risida G. Yaxshiyeva o'rinli asoslagan.

Intonatsiyaning emotsional jihat, asosan, konnotativ ma'no ifodalaydi. Konnotativ ma'no denotativ ma'no ustiga yuklangan bo'ladi. Inonatsiya so'zlovchining nutqiga ma'lum uslubi bo'yoq berishga muhim vosita ham sanaladi. Jumladan, nutqda sekin so'zining imtonatsiyasi tajriba qilinganda, quyidagi ma'nolarni berganligi kuzatiladi: yumshoq iltimos, tasdiq, ogohlantirish, taklif, o'ksinish, sanash, xabar, chog'ishtirish, farqlash, hayrat do'q, ishonch, kuchli qo'rqinch, so'roq, buyruq va hokazolar angalashilib kelishi amalda isbotlangan.

Ma'lumki, so'z bo'g'inlaridan birining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishiga urg'u deyiladi. Urg'u qabul qilgan bo'g'in urg'uli bo'g'in deb ataladi. Urg'u obyektiga ko'ra ikki xil bo'ladi: so'z urg'usi, fraza urg'usi.

Urg'uning semantik-grammatik va uslubi xususiyatlarini dastlab o'zbek tilshunosligida A. G'ulomov, A. Mahmudov, H. Yo'ldosheva kabi qator olimlar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Ularning bu ilmiy izlanishlari nihoyatda katta ilmiy ahamiyatga egadir.

O'zbek tilida urg'u yuqorida qayd qilinganidek, supersegment (ustama) vositalardan biri, u tilning turli sathlariga tushib nutq jarayoni zanjirini tashkil

---

<sup>29</sup> O'rinboyev B, O'rinboyeva D. Tilshunoslik nazariyasi. Samarqand. 2010-yil. 105-106-betlar.

qilishda muhim fonopoetik vazifa bajaradi<sup>30</sup>. Ammo urg`uning uslubiy ahamiyati haqida hatto o`zbek tili stilistikasiga oid adabiyotlarda ham ma`lumot berilmagan. Holbuki, urg`u ma`lum bir so`zni to`g`ri talaffuzini belgilash bilan birga, uning stilistik bo`yoqdorligini ham ko`rsatadi.

Urg`u orqali qo`shimcha ma`no bo`yog`ini hosil qilishda ohang asosiy rol o`ynaydi. Bunda so`zning denotative ma`nosi o`zgarmay, turli konnotativ ma`nolar hosil bo`ladiki, bu o`z navbatida uslubiy rang-baranglikni vujudga keltiradi. Urg`u semantik-grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega bo`lgan fonetik vositalardan biridir. So`z urg`usi semantik-uslubiy tomondan so`z ma`nosi va talaffuzini to`g`ri belgilashga xizmat qiladi. Ayrim hollarda so`z bo`g`inlariga tushgan urg`u uning denotativ ma`nosiga ta`sir qilmay, konnotativ ma`nosini o`zgartiradi.

Tilda leksik urg`udan tashqari fraza urg`usi yoki mantiqiy urg`u (gap urg`usi) ham bo`ladi. Gap tarkibidagi so`zlardan birining yoki bir nechasining boshqalariga nisbatan kuchliroq ohang bilan aytilishiga mantiqiy urg`u deyiladi. Gapning turli ottenkalarini mantiqiy urg`u orqali ifoda etish mumkin. O`zbek tilida logik urg`u boshqa ko`pgina tillardagi kabi fikriy jihatdan ahamiyatli bo`lgan elementni ajratish, kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bu ajratish o`sha elementning kuchli aytilishi bilan bog`liqdir.

Agar leksik urg`u fonetik hodisa bo`lsa, mantiqiy urg`u sintaktik hodisadir. Shunga muvofiq leksik urg`u fonetikada, mantiqiy urg`u grammatikada o`rganiladi.

O`zbek tilida logik urg`u boshqa ko`pgina tillardagi kabi fikriy jihatdan ahamiyatli bo`lgan elementni ajratish, kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Bu ajratish o`sha elementning kuchli aytilishi bilan bog`liqdir. Bunday kuchaytirish shu elementning so`nggi bo`g`inida o`zining eng yuksak nuqtasiga yetadi. Bu hodisa havo oqiminigina kuchayishi emas, balki umumiy tonning-ohangning ko`tarilishidir. Logik urg`u biror narsani ta`kidlashda, birini ikkinchisiga zid qo`yishda ham uchraydi. Mantiqiy urg`u o`z tabiatiga ko`ra grammatik shakllar

---

<sup>30</sup> Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008. – B. 14.

bilan ham aloqadordir. Kelishiklardan qaratqich va tushum kelishigidagi soʻzlar mazmunan birinchi oʻrinda boʻlganida, mantiqiy urgʻu olishi bilan birga, koʻpincha oʻz belgilarini ham saqlaydi. Belgisiz qoʻllangan taqdirda esa logic urgʻuni ololmaydi. Bunday eʼtiborsizlik natijasida esa nutqda mantiqiy-uslubiy nuqsonlar vujudga keladi. Shuningdek, urgʻu gapning mazmuniga aniqlik kiritadi va gapdagi boʻlaklarning qimmatini belgilaydi. Bu urgʻu maʼlum darajada gapda soʻzlar tartibi bilan ham bogʻlanadi. Mantiq urgʻusiga qarab gapning tartibi ham oʻzgarishi mumkin. Agar gap tartibidagi biron soʻzning oʻrni ikkinchi gapda almashtirib qoʻllansa, shu gapda taʼkidlash, boʻrttirish maʼnosi kuchli ifodalangan boʻladi. Odatdagi tartib logik-grammatik va uslubiy talab bilan oʻzgaradi. Kuchli emotsiyalarni ifodalash, ekspressivlikni ifodalab kelish uchun logik urgʻu olgan boʻlakdagi undosh tovush baʼzida takrorlanib kelishi mumkin: - **Jud-dayam-da!** – *Qismatillo toʻrt-besh odim yurgach, burilib dedi: -- Chiqay, kelay...*

*-Bilmadim, -- yelkasini qisdi Hidoyat. – Qandaydir cholga oʻxshaysiz, ogʻir... La-anj.*

Emfatik (hayajon) urgʻu gapning biror boʻlagi yoki boʻlaklariga soʻzlovchining kechinmasi, hayajoni, subyektiv munosabati kabilarning yuklatilganligini koʻrsatuvchi intonatsion qismdir. Uning logik urgʻudan farqi shundaki, logik urgʻu tinglovchi diqqati qaratilgan boʻlakni ajratib koʻrsatadi. Hayajonli (emfatik) urgʻu esa soʻzlovchining oʻz subyektiv munosabati qaratilgan boʻlakni ayirib koʻrsatish vazifasini oʻtaydi. Logik urgʻu gapning biror bir boʻlagiga tushadi, emfatik urgʻu bir necha boʻlakka, hatto gapning maʼlum bir qismiga ham tushishi mumkin. Mantiqiy urgʻuda tovush kuchi asosiy oʻrinda turgani holda, emfatik urgʻuda tovush choʻziqligi asosiy oʻrinda turadi.

Badiiy tasvirda emfatik urgʻusidan keng foydalaniladi. Unda muallifning ruhiy kechinmasi, his-hayajoni, subyektiv munosabati kuchli ifodalangan boʻladi<sup>31</sup>.

Xulosa qiladigan boʻlsak, urgʻu semantik-grammatik hamda uslubiy ahamiyatga ega boʻlgan muhim fonetik vositalardan biridir. Urgʻu vositasida

---

<sup>31</sup> Haydarov A. Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari: filol. fanlari nomzodi diss... avtoref. – Toshkent, 2008.16-17-b.

paydo bo'ladigan turli xil emotsional-ekspressiv ma'nolar badiiy tasvirning jonli, obrazli bo'lishini ta'minlaydi.

### **Bob bo'yicha xulosa**

1. O'zbek nasri XX asrda katta rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Bu davrda A. Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'. G'ulom, A. Qahhor, O. Yoqubov, P. Qodirov, S. Ahmad, O. Hoshimov kabi iste'dodli yozuvchilar o'z ovozi, o'ziga xos tili, uslubi bilan adabiyotimiz, nasrimiz taraqqiyotini bir necha pog'ona yuksaklikka ko'tarib, uni ham mazmunan, ham shaklan, ham g'oyaviy va mavzuiy jihatdan yangi asarlar bilan boyitdilar. Ularning har biri o'ziga xos iste'dod, o'ziga xos qalam egasi edilar. Ana shunday o'lmas yozuvchilar qatorida Sh.Xolmirzayev alohida o'rin egallaydi. Chunki Sh.Xolmirzayev o'zbek hikoyachiligini yana bir pog'ona ko'tara olgan, Abdulla Qahhor an'analarini davom ettirgan yozuvchilardan biri.

2. Sh.Xolmirzayev asarlarida fonetik vositalar boshqa til birliklari kabi poetic vazifa bajarishga xizmat qiladi. Segment va supersegment birliklar qahramonlarning ruhiy holatini, his-tuyg'ularini bo'rttirib ifodalab, o'quvchiga ta'sirli tarzda yetkazishga, qahramon nutqini individuallashtirishda alohida ahamiyatga ega.

## **II BOB. SH.XOLMIRZAYEV ASARLARI LEKSIKASINING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

### **2.1. Sh.Xolmirzayevning soʻz qoʻllash mahorati**

Badiiy adabiyotning vazifasi inson qalbining, dilining “sirli”, “yashirin” nuqtalarini yoritishdan iborat boʻlsa, badiiy til badiiy mahoratning uzviy boʻlagidir. Til orqali yozuvchi asar qahramonlarining murakkab, oʻziga xos xarakterli xususiyatlari, oʻy-mulohazalari, his-tuygularini, shu jumladan, sharoit va muhitning inson ruhiyatiga taʼsirini tahlil qiladi.

Badiiy asar yaratish borliqni badiiy obrazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni boʻlib, sanʼatkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanish masʼuliyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikriy rang-barang boʻyoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini beruvchi bitmas-tuganmas xazinaki, uning javohirlaridan har bir yozuvchi oʻz kuzatuvchanlik qobilyati, falsafiy mushohadasi va badiiy mahorati doirasi hamda darajasida foydalanadi.

Ijodkorning til sohasidagi sanʼatkorligi birinchi galda shunda namoyon boʻladiki, u keng isteʼmoldagi soʻz va iboralarni mohirona qoʻllash bilan bir qatorda, xalqning ilgʻor, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlari mumtazam ravishda kengayтира boradi. Oʻz tili materiallari asosida yangi soʻz va iboralar yaratadi, har xil dialoglarda va umuman ogʻzaki nutqda mavjud boʻlib, adabiy-yozma nutq boyligi hisoblanmaydigon ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq sharoitlarda qoʻllash yoli bilan ularga yangi maʼno va vazifalar yuklaydi.

Badiiy nutqning kommunikativ va shu bilan birga estetik vazifa bajarishi maʼlum. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan asosiy belgisi uning estetik funksiyasi, obrazlilik va ekspressivligidir.

Til mohiyatan, ichki qurilishi jihatidan denotativ (atash, nomlash, nominativ) va konnotativ maʼno bildirib, shu asosda aloqa vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki dualizmi, bir tomondan, obyektiv borliqni aks ettiruvchi

tafakkurning shakli; ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatlaridan kelib chiqadigan mustaqil tizimdir.

Ma'lumki, badiiy adabiyotning asosiy quroli so'z sanaladi. So'z serqirra va murakkab lisoniy hodisa, fonetik-fonologik, leksik-semantik, ijtimoiy va ruhiy xususiyatlar majmuidir. Sh.Xolmirzayev asarlarining xalqimiz orasida katta shuhratga ega bo'lishi va sevib o'qilishida ham ular tilining har tomonlama ishlanganligi, xalqchilligi alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Sh.Xolmirzayev inson qalbidagi his-tuyg'u va kechinmalarni, qalamga olinayotgan voqelikni badiiy so'z, umumxalq tiliga oid ta'sirchan iboralar, shevaga xos so'zlar vositasida hayotiy tasvirlaydi. Masalan, quyidagi kontekstda qahramonlar ruhiy holati aniq va ta'sirli tasvirlangan:

*- Oy borib, omon kel, bolam. Sendan boshqa suyanchig'im yo'q... - Umar aka o'g'li Ummatalining ko'ksiga peshanasini ishqab-ishqab yig'lar, Hosila opa uning yelkalarini silab-siypar edi.*

*- Ena! Ota deyman! Urushga ketayotganim yo'q-ku, kelaman! – derdi Ummat g'ashlanib va allanechuk quvonib* (“Kimsasiz hovli”). Kontekstdagi *oy borib, omon kel* xalqona nutqiy odat birikmasi, *suyanchig'im yo'q* metaforasi, *g'ashlanib va allanechuk quvonib* antitezasidagi zid ma'noli so'zlar qahramonlarning o'zaro munosabati va his-tuyg'ularini badiiy va ta'sirli yetkazishga xizmat qilmoqda.

Yozuvchilar olg'a surgan g'oyasini o'quvchilar ommasiga to'la yetib borishida ham asar tili muhim rol o'ynaydi. Haqiqatan, til o'sha g'oyani talqin etishda ishoralarning siqiq, silliq bo'lishi, so'zlarning o'z o'rnida ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Har bir yozuvchi asar tilini shirali, badiiy va ta'sirchan bo'lishini ta'minlashda “so'z azobi” ni boshdan kechiradilar va kitobxonga manzur bo'ladigan so'zlar topishga harakat qiladilar, oxori to'kilmagan so'zlar qo'llash ustida bosh qotiradilar.

Umumxalq tili yozuvchi ixtiyoriga o'z so'z sostavidagi hamma vositalarni berishdan tashqari, ulardan tanlab olish imkoniyatini ham beradi, umumxalq tili

yozuvchi ixtiyoriga grammatik tomondan tayyor va qat'iyashtirilgan so'z va qurilishlarining usullarini berishdan tashqari, yana turli xildagi so'z va qurilishlari usullaridan ham tanlab olish imkoniyatini beradi.

Sh.Xolmirzayev o'z asarlarida leksik birliklarning ifoda imkoniyatlaridan unumli foydalana olgan. Uning asarlarida ishlatilgan leksemalar jo'yali qo'llangani, serqirraligi, o'zining xalqonaligi, bo'yoqdorligi va jonliligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Sh.Xolmirzayev asarlarida so'zning qudratini alohida inobatga olgan holda, undan zargarona foydalanadi. Muayyan voqelikni tasvirlashda shunchaki bayondan qochadi, balki ko'p ma'noli so'zlar, so'zning konnotativ ma'nosi, ma'no ko'chishining turli usullari, xalqona ibora va birikmalarni unumli qo'llaydi. Masalan:

*Ikromjon... ertasi ishdan vaqtida chiqib, uyga keldi. Tursunoy uning siniqqan rang, botiq ko'zlariga razm solib, undan gap kutdi: "Hozir kechirim so'raydi... Hamma gapni aytib beradi!" Lekin Ikromjon unga qay til bilan gap qotsin? U, hatto xotinining yuziga boqishga ham botinolmas edi. Yuragi dir-dir titrar, nojo'ya qadam tashlab yubormaslik uchun o'ta hushyor, ayni chog'da Tursunoyga ko'zi tushsa, u bobillab beradigandek edi.* Kontekstda qahramon ruhiy holatini aniq va ta'sirli tasvirlashda *siniqqan, botiq* sifatlari, *qay til bilan gap qotsin* jumlasini, *yuziga boqishga botinolmas edi, yuragi dir-dir titrar* birikmalarining alohida ahamiyati bor. *Bobillab beradigandek edi* birikmasi qahramon holatidagi xavotir va hadikni bo'rttirib tasvirlashga xizmat qilmoqda.

Adibning so'z qo'llash mahorati tabiat tasvirida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi: *Jiyaklarini baland barra o't va qo'ziquloqlar bosdib ketgan qizil qumoq yo'l. Unda-bunda yerga singmay qolgan sarg'ish halqoblar. Osmon qatqaloqday darz ketgan qora bulutlari bilan ularda sarg'ish aks etgan. Yo'lning chap tomoni unga yonbosh cho'zilib ketgan qizg'ish jar, jar tubida suv miltiraydi, u yerdan fotmachumchuq va cho'ponaldag'ich qushining chiq-chiq, qiyiq-qiqiyiq ovozlari keladi. Narigi betda esa ikki tup yovvoyi olcha qiyg'os gullab turibdi. Yo'lning ong tomoni yam-yashil, to'lqinsimon adirlar. Jimirlaydi, tovlanadi. O'sha yoqdan*

*esayotgan g'ir-g'ir shabada qo'ziqorin va chirik yantoq hidini olib o'tadi* (“O'n sakkizga kirmagan kim bor”). Mazkur kontekstda tasvirning kengligi yo'lga nisbatan qo'llangan *Jiyaklarini baland barra o't va qo'ziquloqlar bosdib ketgan qizil qumoq, bulut* tasvirida qo'llangan *qatqaloqday darz ketgan qora, adirga* nisbatan ishlatilgan *yam-yashil, to'lqinsimon* sifatlashi va *jimirlaydi, tovlanadi* fe'llari, suvga nisbatan holatni ifodalovchi *miltiraydi*, yovvoyi olchaga nisbatan *qiyg'os gullab turibdi* birikmasining qo'llanishi orqali amalga oshiriladi.

Sh.Xolmirzayev asarlarida muallif nutqi va personajlar nutqidagi tafovut, personajlar nutqining o'zaro farqi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Muallif nutqida nutqning aniqligi, ifodaliligi, sofligi, ta'sirchanligi, mantiqiyliigi sifatleri to'liq namoyon bo'lsa, personajlar nutqida so'zlashuv nutqiga xos ibora va birikmalar, shevaga xos fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarning namoyon bo'lishi, chegaralangan leksikaning qo'llanishi voqelikning to'g'ri va mantiqiy, jonli, ta'sirli tasvirlanishiga yordam bergan. Buni bir necha misollar orqali tahlil qilishimiz mumkin.

Muallif nutqi: *Laxtak-laxtak qora ho'l bulutlar bog`etagi tomon osilib borar, ular orqasidan sarg`ayib oy ko`rinardi. “Tip-tip” tomchi tovushi keldi. So`ng shamol tomorqadagi daraxtlarni silkitdimi, tom ustiga shovdirab yomg`ir suvi to`kildi* (“O'n sakkizga kirmagan kim bor”).

Qahramon-hikoyachi nutqi: *Oqibatda Nosirjon o`ylanib qoldi. Odamzod qiziq-da: uning jiddiy o`ylanishi ham yoqimli, qiziq; ham kulgibop, ermakbop edi. Agar bu gap-so`zlar oqibati Nosirni qay ko`ylarga solishini bilganimizda edi...* (“Bodom qishda gulladi”)

Personajlar nutqi: *“Tursunoy haq...Ayb menda, - dedi nimqorong`i o`tinxonaga kirib. – Men uning qadriga yetmayapman... Uni kaftimda ko`tarib yursam arziydi* (“Shudring tushgan bedazor”).

Adib qahramonlar ruhiy holatini ochib berishda antiteza, ya'ni bir-biriga qarama-qarshi voqelikni tasvirlash usulidan ham keng foydalanadi. Masalan: *Tilov bularga bir necha odim qolganda so`qmoqda chayqalib to`xtadi va Jamshidga ham qiziqib, ham yotsirab qaradi. Jamshid dumaloq horg`in ko`zlarini unga tikib*

*iljaydi. Shu payt jiyrinning tuyog'i so'qmoqdan toyib ketib, oldinga sakradi va Zaynabxon Jalolovning yelkasidan ushlab, qaddini tikladi. Jalolov kuldi. Zaynabxon ham kuldi. Tilovning esa kichkinagina ko'zlari birdan qisilib, yapasqi iyagi tirishib ketdi. Jamshidga xo'mrayib bir qaradi... ("Bodom qishda gulladi").*

Adabiyotning badiiyligi ijodkorni voqelikni obrazli idrok etishi va ana shu obrazli idrok etilgan voqealikni so'zlar vositasida o'zgalar hissiga, ruhiga va ongiga ta'sir ko'rsatadigan tarzda qayta yaratishdan, shakllantirishdan iborat murakkab ruhiy, aqliy va shuuriy hodisadir. Bu hodisada insonning besh sezgisi va oltinchi sezgi hisoblanmish ichki sezish orqali qabul qolingan har qanday axborat inson qalbidagi mavjud barqaror va beqaror tuyg'ularga ta'sir etib badiiy kechinma tug'diradi. Badiiy kechinma esa ijodkor ruhiy, aqliy faoliyati bilan sintezlashib muayyan obrazlarni shakllantiradi. Ana shu obrazli hosilani estetik qimmatga esa bo'lgan so'zlar vositasida tasvirlash adabiyotning badiiyligini tashkil qiladi<sup>32</sup>.

Adib o'zbek tili ifoda imkoniyatlari kengligidan foydalanib, so'zlarni konnotativ ma'noda qo'llashga alohida e'tibor qaratadi. Voqea-hodisalar tasviri deysizmi, qahramonlar portreti deysizmi, lirik chekinishlar deysizmi, qat'iy nazar, konnotatsiya ifodaning jonliligi va badiiyligi, obrazlilikini ta'minlashga xizmat qilgan Masalan, *cho'kmoq* so'zining denotativ ma'nosi *pasaymoq*, *g'arq bo'lmoq*. Ko'ngli *cho'kmoq* iborasi tarkibida ham qo'llanadi. Insonga nisbatan ruhan ezmoq, yengmoq ma'nolarida qo'llanishi va ruhiy holatni aniq ifodalashga xizmat qilishi kuzatiladi: *Bu ikki g'am bir bo'lib Zaynabxonni ancha cho'ktirib qo'ydi* ("O'n sakkizga kirmagan kim bor").

Sh.Xolmirzayev qahramonlar ruhiyatini ochib berishda ritorik so'roq gaplardan ketma-ket foydalanadi. Masalan, o'zi bilmagan holda jinoyatchilikda ayblanib qolgan, qora kuchlar qo'lida o'yinchoqqa aylanib, umri azob bilan yakunlangan Sharif Namozovning qamoqxonaga ilk bor tushganda kechirgan iztirob va o'ylarini ritorik so'roqlar orqali tasvirlaydi. Bu esa qahramonning boshi berk ko'chaga kirib qolganligini yaqqolroq ochib berishga xizmat qiladi: *Jamshid shu kecha allamahalgacha uxlo olmay yotdi. "Nega axir, nega? – dedi o'ziga-o'zi. –*

---

<sup>32</sup> Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Тошкент: Фан, 2004. – Б. 121.

*Menga baribir emasmi? Axir men Umida bilan o`rtoqman-ku?...`* (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”)

O`zaro ma`nodoshlik qatorini hosil qiluvchi so`zlar tushunchaning belgisini turli daraja bilan ifodalashi, ba`zi so`zlar belgini normal daraja bilan (neytral) ifodalasa, ba`zilari kuchli darajasini ifodalashi mumkin. Sinonim so`zlar emotsional bo`yoqli va emotsional bo`yoqsiz so`zlarni tashkil etib, ular yana salbiy emotsional va ijobiy emotsional so`zlarga bo`linib ketishi mumkin. , har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham bo`la olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar bo`lib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ ta`sir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon bo`ladi.

*So`z leksik ma`nolarida paradigmatic munosabat semantik jihatdan qaralganda dastlab so`zlar ma`no bir xilligi (sinonimiya) va ma`no qarama-qarshiligi (antonimiya) nuqtai nazaridan guruhlariga bo`lib tadqiq etilgan.* Keyingi yillarda so`z leksik ma`nolaridagi paradigmatic munosabatni semantik jihatdan eslatuvchi yana bir hodisa – lug`aviy darajalanish (graduonimiya) hodisasi mavjudligi, unda so`zlar ma`no farqlanishiga asoslanishi ko`pgina tadqiqotchilar tomonidan tadqiq etildi<sup>33</sup>. Leksik sinonimiya ma`nolari bir tayanadi. Demak, xulosa qilganda shunday fikr kelib chiqadi. Sinonimiya va graduonimiya hodisalari o`zaro keskin farqlanadi. Biroq shunga qaramay, ular o`rtasida ma`noviy munosabat mavjud. Aslida sinonimlardan biri o`rnida ikkinchisini kontekstual qo`llash imkoniyati mavjud bo`lsa, denotativ ma`nolarga asoslangan graduonimlar orasida darajalanish farqlari kuchli yoki kuchsiz bo`lishi mumkin. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon ko`zi o`ngida aniq va to`la gavdalantirishda frazeologik iboralarning ma`nodoshligidan keng foydalaniladi. Sinonimik qatordagi so`zlar nutqning biror turiga, uslubiga xosligi jihatidan ham o`zaro

---

<sup>33</sup>Рахмонов Ф. Синонимлар қаторида градуонимиянинг ифодаланиши // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. №3. – Б. 71-72.

farqlanishi mumkin. Sinonimik qatordagi soʻz hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan eskirgan boʻlishi mumkin. Koʻp yoki oz qoʻllanishiga koʻra oʻzaro farqlanishi mumkin. Ifodalaydigan tushuncha doirasi keng boʻlgan, belgini normal darajada ifodalaydigan, emotsional boʻyoqqa ega boʻlmagan, hozirgi adabiy tilga mansub boʻlgan soʻz sinonim qatordagi boshqa soʻzlarga nisbatan koʻp qoʻllaniladi.

*...Endi uni boyagi **shodon, toshqin** kayfiyat tark etgan edi. (“Saylanma”, 103-b.)*

Yuqoridagi gapda “**shodon, toshqin**” soʻzlari faqat kontekstdagina oʻzaro sinonim boʻlib, qahramonning kafyiyatini toʻliq ifodalashga xizmat qilgan.

*-Ha, ha, ha! **Inson, odam**...shunday kunda oʻylab koʻrardi... Toʻgʻri, menda ham **kamchiliklar** koʻp: oʻsha safardayam **nuqson** oʻtgan mendan... Mayli, boʻynimga olaman (“Saylanma”).*

*Uzoqdan bir necha qargʻalar quvq-quvq etib suzib oʻtishdi. Ular endi Sultonning dilida na bir **his**, tasavvurida na bir **oʻy** uygʻotdi.*

*U yoʻlida davom etdi. Qay bir joyda oʻzining bu yoqqa kelayotganini, oʻshanda qadamlari ildam, koʻkragi ochiqqligi, gʻoyatda **xursand-shod** ekanini esladi va oʻsha onlarni boshdan kechirgan-chun yanada **mamnun** boʻlib, umuman, bugungi bir-ikki soatlik vaqti yaxshi, boʻlarini aytganda, maʼnoli oʻtganini qayd etdi.*

Misollardan koʻrinib turibdiki, Maʼnodosh soʻzlar leksemalarni oʻrinsiz takror ishlatishga yoʻl qoʻymaydi, badiiy nutq uslubining ravonligini taʼminlaydi, jummalarning ixcham tuzilishiga keng yoʻl ochadi, semalarni oʻrganish jarayonida chuqur fikr yuritishga imkon beradi.

Nutqda, umuman olganda ogʻzaki va yozma nutqda sinonimlarning katta amaliy ahamiyati bor. Sinonimlar nutqiy taʼsirchanlikka asoslanib, kitobxonning soʻz boyligini oshiradi. Sinonimlar til lugʻat sostavining qanchalik boy va rang-barangligini koʻrsatuvchi belgilardan biridir.

Ayrim oʻrinlarda sinonimlar juft soʻz koʻrinishida ham keladi: *...**hali-boya** bu tomonga kelayotganida, koʻziga hech narsa, jumladan yoʻlovchilar ham*

*ko`rinmas edi; u yer-u zamindan balandda – hayolda, ajib olijanob niyatlar qanotida edi... (“Saylanma”)*

*-Ha, tuzuk, durust, -- dedi Amirqul polvon. – Shuytib nimaga chiqarg`an ekan seni? (“Saylanma”)*

Sinonimlar ma`no va qo`llanish doiralariga ko`ra uch xil: ideografik, stil va stilistik sinonimlar. Ideografik sinonimlar o`zaro leksik ma`no ottenkalaribilan farqlansa, stil sinonimlari qo`llanish doirasiga (nutqning turli stiliga mansubligiga), stilistik sinonimlar esa ekspressiv bo`yog`iga (sinonimik qatorda asosiy, neytral so`zga nisbatan ekspressiv ottenkaga egaligiga) ko`ra farqlanadi.

Sinonimik qatordagi so`zlar leksik ma`no qirrasini, uslubiy tomoni hamda pragmatik semasi bilan o`zaro farqlanishidan kelib chiqib, tilshunos olim M. Mirtojiyev ularni bir necha tipga ajratadi.

Kontekstual sinonimiya – til birligi sifatida o`zaro sinonim bo`lmagan leksemalarning ma`lum kontekst doirasida (demak, nutq ichida) sinonimik munosabatga kiritilishi<sup>34</sup>. Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo`lgan, tayyor ma`nodosh so`zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko`ra ma`nodosh bo`lmagan sozlarni ham shunday qo`llaydilarki, bu so`zlar ham matnda xuddi ma`nodosh so`zlar kabi idrok etiladi. Kontekst doirasida sinonimlashish hodisasi ayniqsa muallif leksemasining nutqdagi qo`llanishida ko`p uchraydi. Ma`lumki, muallif leksemasining sememasi tarkibida “yozuvchi”, “shoir”, “hikoyanavis”, “olim”, “ixtirochi” kabi qator semalar mujassamlangan. Demak, uning ma`no ko`lami ancha keng. Kontekst ichida esa muallif sememasining shu semalaridan biri aktuallashadi, qolganlari reallashmaydi. Masalan, roman, hikoya kabi nasriy asarlar haqida gap ketganda muallif leksemasi faqat “yozuvchi” ma`nosida qo`llanadi, demak, yozuvchi leksemasining kontekstual sinonimiga aylanadi, kontekstdan tashqarida esa bu ikki so`z sinonim bo`la olmaydi, chunki ularning ma`no ko`lami o`zaro teng emas.

---

<sup>34</sup> Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent, 2005 y. 168-b.

## 2.2. Frazelogizmlarning leksik-semantik xususiyatlari

Tilimizning serqirraligi, inson his-tuyg`ulari, borliqdagi hodisalar va jarayonlarni ifodalashda naqadar keng imkoniyatlarga ega ekanligi lug`aviy birliklardan hisoblanuvchi frazeologizmlarning mazmun-mohiyati, qo`llanishida yanada yaqqolroq namoyon bo`ladi.

Badiiy matn yaratishda yozuvchi ko`p hollarda frazeologizmlarga, maqol va matallarga, xalq og`zaki ijodiga tayanadi. Har bir timsolni yaratishda ijodkor o`sha shaxs tabiati, uning xususiyatlarini ochib berayotgan kichkinagina jamiyatlardagi o`rnini tasvirlar ekan, timsol va muhit orasidagi munosabat, yaqinlik va ziddiyatlarni shakllantiradi. Unga sayqal, bo`yoq beradi. Ushbu holatda frazeologik birliklarni ham semantik, ham stilistik jihatdan to`g`ri qo`llash asar ta`sirchanligi va bo`yoqdorligini oshiradi.

Frazeologik birikmalar, ularning leksik-semantik xususiyatlari badiiy matn yaratishda ijodkor imkoniyatlarini ochib beradi. Masalan: *Mabodo ovdan **qo`li quruq qaytsa** – bunday voqea juda kam bo`lardi – u bamisoli **otasi o`lgandek aza tutar, qovog`i ochilmas**, shunda xotini ham ko`ziga yomon ko`rinib, bechora biron yetishmovchilikdan zorlansa, u: "**Jonga tegding**-ku sen ham!" deya miltiqni qo`liga olardi* ("Omon ovchining o`limi").

Frazemalar Sh. Xolmirzayev asarlarida serqirra ko`rinishda uchraydi. Ular birinchidan, fikrni lo`nda va ekspressiv ifodalaydi, xalq tilida qanday ishlatilsa, shu ma`noda qo`llanadi: - *Hi, maylising ham **ordona qolsin**. Bolangning fe`lini bilasan-ku...* ("O`n sakkizga kirmagan kim bor")

Ikkinchidan, turg`un birikmalar murakkab holda qo`llanilib asar syujetida hal qiluvchi vazifani o`tagan yoki asar motivlarini harakatga keltirish, voqealarni bir-biriga ulash, personajlarning xarakterli tomonlarini ochishga yordam berish kabi bir qator vazifalarni bajaradi: *Lekin **quti o`chdi**. Garangsib Tilovga tikildi* ("O`n sakkizga kirmagan kim bor").

Frazeologik birikmalar asar ta'sirchanligini yuqori darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.<sup>35</sup> Ko'plab adabiyotlarda frazeologizmlarning ma'nosi bitta so'zga teng bo'lgan birikma sifatida ta'riflanadi. Biroq ko'plab iboralarning ma'nosini aynan biror so'z bilan ifodalab bo'lmaydi:

Badiiy matnda qo'llangan frazeologizmlar quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

1.Frazeologizmlarda oddiy birliklarga nisbatan emosional-ekspressivlik kuchli bo'ladi. Masalan: *Shu payt hovlidan eshitilayotgan g'uvur-g'uvur erkaklar ovozi va kimnidir kimga shoshilinch ish buyurgani **qulog'iga kirdi**-yu, asta o'rnidan tura boshladi* ("O'n sakkizga kirmagan kim bor").

2.Iboralar holat va harakatga nisbatan qo'llaniladi, ya'ni fe'l, ravish so'z turkumi bilan bog'liq: *Men sendan yashirmayman: shu opam bilan Jamshidlar bordi-yu mening oshimga zahar qo'shildi* ("O'n sakkizga kirmagan kim bor")

3.Iboralarni hosil qilishda ma'no ko'chishning metafora usulidan ham foydalaniladi. Bunda metaforaning faqat holat va harakat belgilarini ko'rish mumkin:

Frazeologik boylikni nutqimiz ko'rki deb ataydilar.<sup>36</sup> Aynan shuning uchun ham frazeologizmlar badiiy asarning xalqchilligini, asar tilining milliyligini oshirishga xizmat qiladi. Sh. Xolmirzayev asarlarida bir qator ana shunday iboralar kuzatiladi. Masalan:

- *Tagi yetimman, og'a... Lekin otamiz **beli baquvvat odam** bo'lgan* ("Tabassum")

Yozuvchi personajlarni tasvirlashda o'ziga xos iboralarni ham kashf qiladi: - *Og'a, yetimning **haqiga kim ko'z olaytirs**a, topadi...* ("Tabassum")

Iboralar xalqning tarixini, maishiy hayotini, unda mavjud bo'lgan hodisalarni, ayrim shaxslarning xulq atvorini belgilaydi. Iboralarda maqollarda bo'lganidek, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan umumlashgan

<sup>35</sup> Саидхонов М. ва б. "Тилшунослик ва адабиётшунослик масалалари". – А.: 2002, 249-б.

<sup>36</sup> Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Т.: Ўқитувчи, 1998. – В. 35.

xulosalar ifoda etiladi, voqealarga, ayrim shaxslarning xulq atvoriga nisbatan yo salbiy, yo ijobiy munosabat bildiriladi.

Iboralar ko`proq so`zlashuv uslubiga xos. Badiiy asarda esa so`zlashuv uslubiga xos frazemalardan foydalanish asar tilining xalqonaligini ta`minlaydi: *Quyun Qo`rboshi oraga tushdi* ("Tabassum").

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so`z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma`no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma`noni ifodalaydi.

Obrazlilik ko`pgina frazeologizmlarning asosiy xususiyatidir.

Obrazlilik, ifodalilik frazeologizmlarning asosiy xususiyati bo`lsa, ekspressivlik – emotsionallik barcha frazeologizmlar uchun bir xil emas. Ba`zi frazeologik iboralarda ekspressiv emotsionallik kuchli bo`lsa (ninaday narsani tuyaday qilmoq, o`lganning ustiga tepgan va boshqalar), ba`zilarida esa neytrallik (dili xufton bo`ldi, ichi qora, til topishmoq) bor bo`ladi.

Og`zaki nutq frazeologizmining xarakterli tomonlaridan biri yorqin ekspressiv bo`yoqqa egaligi bo`lib, ular xilma-xil kinoya, hazil, biror xususiyatga ijobiy yo salbiy baho berish kabi ma`nolarni ifodalaydi. Baholash asosan ikki xil; ijobiy va salbiy bo`lib, narsa – hodisa yoki shaxslarga xos muhim bo`lgan belgi va xususiyatlar asos qilib olinadi. Ijobiy xususiyatlarni ifodalash salbiy xususiyatlarni ifodalashga qaraganda nisbatan kamroq qo`llanadi. Bu tabiiy hol. Chunki, birinchidan iboralarning asosida nutqning ifodaliligi, emotsionalligi va jonligini oshirish, salbiy xarakterlarni illatlarni yorqinroq ifodalash yotsa, ikkinchidan ijobiy xislatlardan ko`ra salbiy xislatlar tezroq ko`zga tashlanadi.

Jonli nutqda suhbat mavzui tez-tez o`zgarib turadi. Shunga ko`ra, so`zlovchi neytral nutqdan birdaniga ekspressiv bo`yoqlarga ega bo`lgan nutqqa o`tadi. Vaziyatga qarab fikrni aniq va jonli ifodalash uchun obrazli vosita hisoblangan frazeologizmlardan foydalanadi.

Frazeologizm til birligi sifatida murakkabligi, uning ma`nan yaxlitligi bilan alohida shakllangan shakli o`rtasidagi ziddiyat, nomoslik iboradagi dolzarb va etimologik ma`nolar nomuvofiqligi uni nutq jarayonida qo`llashni qiyinlashtiradi.

Bu esa o'z navbatida frazeologizmlarni nutqda qo'llash me'yorlarini puxta egallashni taqozo qiladi.

Frazeologizmlar tilning muhim lug'aviy qatlamini tashkil etsa ham tilshunoslikda so'zlarning yasash xususiyatlari keng o'rganilayotgan bo'lsa-da, frazeologizmlarning shakllanish masalalari har tomonlama o'rganilmagan. Bu hol ona tili ta'limida bir qator chalkashliklarga olib kelmoqda. Chunonchi darslik va qo'llanmalarda erkin bog'lanma, turg'un bog'lanma va frazeologizmlar o'zaro keskin farqlanmaydi, ularning farqli belgilari to'liq izohlanmagan. Shuningdek, frazeologizmlarni so'z birikmasi sifatida tilning qaysi bo'limida o'rganish masalasi muammo bo'lib turibdi. Shu ma'noda darsliklarda frazeologizmlar, xususan ularning shakllanishi haqida ma'lumot berilishi lozim.

Frazeologizmlar so'zlar bilan boyib boradi. Chunki ularning shakllanish manbasi so'zlardir.

Frazeologizmlarning shakllagishiga lisoniy va nolisoniy omillar ta'sir etadi. Aksariyat frazeologizmlar o'zbek turmushi voqeligidan kelib chiqadi va shu turmush tarzlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, **“damini chiqarmaslik”**, **“xamir uchidan patir”**, **“chuchvarani xom sanamoq”**, **“jo'jani kuzda sanamoq”**, **“tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq”**, **“hafsalasi pir bo'lmoq”** kabilar kundalik turmushdagi uy-ro'zg'or yumushlarining mantiqiy asosidan kelib chiqib umumlashadi va umumtil miqyosida voqe bo'ladi.

Demak, frazeologizmlar murakkab til hodisasi bo'lib, ularni o'rganishga alohida e'tibor bermoq zarur. O'qituvchi nutqining frazeologizmlarga boy bo'lishi o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Shuning uchun o'zbek tili ta'limida frazeologizmlar tizim sifatida keng ko'lami va chuqur ilmiy asoslangan tarzda o'rganilishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, frazeologizmlar badiiy matnda juda katta ahamiyat kasb etadi. Birikmalarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llay bilish asar mazmunini boyitadi, uning o'quvchiga yetib borishiga xizmat qiladi.<sup>37</sup>

---

<sup>37</sup> Саидхонов М. ва б. Тилшунослик ва адабиётшунослик масалалари. – Andijon, 2002. – B. 248.

Nutqimiz ko`rki, millatning ma`naviy boyligi bo`lmish iboralar zamirida xalqning madaniyati, hayot tarzi, ijtimoiy siyosiy qarashlari, urf – odatlari, uning ko`p asrlik tarixi mujassim bo`ladi. Iboralar nutqimizga, suhbatimizga alohida ko`rk bag`ishlaydi. Iboralarni o`z o`rniga qo`yib, topib ayta bilish ham anchagina bilim va mahoratni talab qiladi. Ular og`zaki nutqda va badiiy asarlarda alohida o`rin egallaydi.

### **2.3. Tasviriy vositalarning lingvopoetik xususiyatlari**

Yozuvchilar olg`a surgan g`oyasini o`quvchilar ommasiga to`la yetib borishida ham asar tili muhim rol o`ynaydi. Haqiqatan, til o`sha g`oyani talqin etishda ishoralarning siqiq, silliq bo`lishi, so`zlarning o`z o`rnida ishlatilishi bilan xarakterlanadi. Sh.Xolmirzayev o`z asarlarida leksik birliklarning turli – tuman xususiyatlaridan unumli foydalana olgan. Uning asarlarida ishlatilgan leksemalar ma`no ko`lamining kengligi, serqirraligi, o`zining xalqonaligi, bo`yoqdorligi va jonliligi bilan alohida-alohida ahamiyat kasb etadi.

Sh.Xolmirzayev asarlarida so`zning qudratini alohida inobatga olgan holda, undan zargarona foydalanadi. Muayyan voqelikni tasvirlashda shunchaki bayondan qochadi, balki ko`p ma`noli so`zlar, so`zning konnotativ ma`nosi, ma`no ko`chishining turli usullari, xalqona ibora va birikmalarni unumli qo`llaydi.

Til va nutq nihoyatda murakkab, shaxs va jamiyat uchun almashtirib bo`lmaydigan darajada ahamiyatli hodisalardir. Tilning uch vazifasidan biri – emotsional-ekspressivlikni ifodalash, ayniqsa, ijodiy tafakkur sohibi bo`lgan inson uchun zaruriydir. Bu o`rinda professor N. Mahmudovning til haqidagi quyidagi fikrlari juda ham o`rinli: “Til faqat aloqa vositasigina bo`lganda edi, u juda oddiy, soda va qashshoq bir narsaga aylangan bo`lardir. Holbuki tilbemis boy, sehr-u sinoatga, ruh-u ruhoniyyatga, ko`rk-u komillikka limmo-lim bir xilqatdir”.<sup>38</sup>

Til o`zining beqiyos imkoniyatlarni badiiy adabiyotda yanada ravshanroq namoyon etadi. O`zbek adabiy tilining ifoda imkoniyatlarini o`z asarlarida keng

---

<sup>38</sup> Махмудов Н. Маърифат манзиллари. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 44.

ko`lamda aks ettira olgan mohir so`z ustalaridan biri Sh.Xolmirzayevdir. Sh.Xolmirzayev “O`n sakkizga kirmagan kim bor”, “Bukri tol”, “O`zbek xarakteri”, “So`nggi bekat” kabi asarlari bilan o`zbek nasri taraqqiyotiga katta hissa qo`shgan adibdir. Sh.Xolmirzayev asarlarida tilimizning boy ifoda imkoniyatlari, ayniqsa, so`zlarning ko`chma ma`nolarda qo`llanib, turli konnotativ semalarga ega bo`lishi asarlar tilining ta`sirchanligi, tasvirning jonli va ishonarli, hayotiyiligini ta`minlashda katta ahamiyatga ega. Ana shunday ma`no ko`chish turlaridan eng faol qo`llanadigani metaforadir.

**Metafora** (gr. metaphora – ko`chirish), avvalo, nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o`xshashligi asosida boshqa ma`noni ifodalash uchun ishlatilishidir.

Metaforik ma`no hosil bo`lishi uchun quyidagidan biri sabab bo`ladi:

- 1) bir so`z boshqa so`zga nisbatan so`zlovchining ifoda maqsadiga ko`proq mos va muvofiq bo`ladi va shuning uchun birinchisi o`rnida ikkinchisi qo`llaniladi;
- 2) biror denotatning ifodalovchisi bo`lmaydi va ma`lum bir so`z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo`llanadi.

Demak, birinchi holda ko`chirilayotgan so`z denotatning ikkinchi atamasi bo`lsa, ikkinchi holda birinchi atamasidir. Masalan, (*quyi*) so`zi anglatadigan ma`noni (*etak*) so`zi qulayroq va to`laroq ifodalaganligi bois tog`ning quyi tomoniga nisbatan (*etak*) so`zi ishlatilgan. Metafora hodisasi asosan, ot turkumi doirasida, qisman fe`lda uchraydi: *Qush uchdi. Samolyot uchdi* qurilmalarining ikkinchisida (*uchmoq*) fe`li ifodalagan harakat qushning havodagi qanotlarini silkitib qilgan parvozigaga o`xshaydi. Shu boisdan (*uchmoq*) fe`li ifodalagan keyingi ma`no metaforik ma`no.

Metafora hosila ma`no hosil qilishning keng tarqalgan usuli sifatida badiiy uslubning, nutqning eng muhim vositasidan hisoblanadi.

Metaforik hosila ma`no nutqda juda ko`p uchraydi. Ammo ularning lisoniylashgani – sememaga aylangani nisbatan kam. [*Qanot*] (samolyot), [*uchmoq*], [*og`iz*] (qop) kabi leksemalarning ushbu hosila ma`noci metaforik semema.

Metaforik yoʻl bilan hosil boʻlgan semema davrlar oʻtishi bilan oʻziga xos atash semalari kasb etishi natijasida bosh sememasidan uzoqlashib, mustaqil xolga kelishi, omonimik tabiatga ega boʻlishi mumkin. Masalan, adabiyotshunoslik termini sifatidagi (*fojia*) umumisteʼmol qoʻllanishdagi (*fojia*) soʻzidan maʼnoviy jihatdan uzilib, ularning nomemalari omonimik munosabatga ega boʻlgan. Shuningdek, joʻgʻrofiy termin boʻlgan [*qoʻltiq*] umumisteʼmoldagi [*qoʻltiq*] leksemasining omonimiga aylangan.<sup>39</sup>

Tilshunoslikda metafora ikki ming yildan buyon oʻrganib kelinadi. Shunga qaramay, bugungi kunda ham bu koʻchim turi tilning eng muhim hodisalaridan biri sifatida koʻplab tilshunoslar tomonidan tadqiq etib kelinmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda metforaning avvalo ikki turi, oddiy hamda poetik metaforalar qayd etiladi. Badiiy metafora esa metafora-predmetlash hamda metafora jonlantirishga boʻlinadi. Metafora jonlantirish koʻproq sheʼriy nutqda kuzatilsa, metafora-predmetlash nasriy asar tili jozibadorligi va taʼsir kuchini oshirishda faol qoʻllanadi. Buni Sh. Xolmirzayev asarlari misolida kuzatamiz.

Badiiy matnda metafora alohida ahamiyatga ega. Jumladan, obrazlilikni taʼminlash, voqea-hodisani, fikrni jonli aks ettirishda metafora oʻziga xos oʻringa ega. Masalan: *Ularning kulbasiga kun ora kirib chiqadigan, dasturxonni quritadigan bolalar koʻzimga yomon koʻrinib ketdi* (“Oʻpdtr xahakteri”). Nafaqat sheʼriy nutqda, balki nasriy asarlarda ham metaforalardan unumli foydalaniladi. Ayniqsa, murojaat-undalma sifatida metafora usulida maʼnosi koʻchgan soʻz qoʻllansa, murojaat qilinayotgan shaxsga nisbatan ijobiy yoki salbiy emotsiya yaqqol yuzaga chiqadi:

- *Oshiqma, qoʻzim. Ertaga kelib seniyam olib ketishadi* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”) – *Jamshidmi? Obbo, sher-ey* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”) Belgi oʻxshashligi asosida metaforaning yuzaga kelishi ham tilimizda keng uchraydi. Bunda tasvirlanayotgan predmet, shaxs, obyektiv borliqqa xos xususiyat yanada yaqqolroq yuzaga chiqadi:

---

<sup>39</sup> Сайфуллаева Р. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили.-Тoshkent, 2008. – В. 28.

Buni eshitgan bolalar quvonishar va bir-biriga qattiq, sirli yaqinlik his qilard... edi (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”).

Harakat o`xshashligi asosida ma`no ko`chishi hodisasi ham badiiy matn uchun ahamiyatli bo`lib, “O`n sakkizga kirmagan kim bor” qissasida bu hodisadan unumli foydalanilgan:

*Umida esa pyesalarga **sho`ng`idi** (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”). Yoki: Kecha yomg`irda **yuvinib**, tanalari jigarrang bo`lib qolgan o`riklar oftobda **isinayotgandek qilt etmay turishar**, faqat jajji yaproqlar orasiga **biqinib olgan** yakka-yarim burishiq oq gullargina pastga **uchar**, bog`oralab ketgan yolg`izoyoq nam so`qmoqqa **qo`nardi** (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”).*

Metafora badiiy matnda qahramon ruhiyatini ochib berishda ayniqsa, katta ahamiyatga ega. Chunki ruhiyat bilan bog`liq mavhum holatlar aniq narsalar, hodisalar, harakatlarni ifodalovchi leksemalarga ko`chib, tasvirni reallashtiradi. Masalan:

- Lirikami?
- Shunday desa ham bo`ladi.
- Ko`rsat-chi.
- Aytyapman-ku, xom. (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”)

Badiiy asarda predmet yoki harakat belgisi ham metaforik ko`chim sifatida qo`llanishi mumkin. Masalan: Shox silkinib, **oppoq zarlar** duv to`kildi (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”).

Metaforalarning tuzilishiga ko`ra ikki turini farqlash mumkin: **sodda metafora va kengaygan metafora**.

Sodda metafora birgina so`zdan tashkil topsa, kengaygan metafora birdan ortiq so`zdan tashkil topadi.

*Umida mashg`ulotdan chiqib, Jamshidning yoniga keldi, yelkasida yostiqchasi bor, ko`kish jemperining cho`ntaklariga qo`lini tiqib, tutash **quyuq** qoshlari tagidan xo`mrayib boqdi* (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”).

- Xo`sh, kim ekan u? – dedi endi **sovuq, quruq** (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”).

Kengaygan metafora turli xildagi soʻz birikmasi holida, shuningdek, sifatlovchi-sifatlanmish tarzida ham uchraydi. Metaforalar tarkibida nechta soʻz qatnashishidan qatʼiy nazar, ular anglatgan maʼno tushunchaga asoslanadi.

Metaforalar nutq birligi boʻlgan gapni shakllantirish, toʻldirish, gapning ravon va taʼsirchan boʻlishi uchun xizmat qiladi. Metafora nutq jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan muhim uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Ular nutqqa taʼsirchanlik, ekspressivlik, emotsionallik va obrazlilik berish uchun xizmat qiladi: *Juvonning chehrasiga dafʼatan **iliq bir mehr tepib**, maʼyus kulimsiradi* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”).

**Oʻxshatish.** Badiiy tilning tasviriyy vositalaridan biri hisoblangan oʻxshatish obrazlilik, tasvirilikni kuchaytirishi favqulotda poetik ifodalilik xususiyati bilan ajralib turadi. Shu boisdan ham kutilmagan ifodadorlik, obrazli, taʼsirchan firka ifodalash oʻxshatishning muhim belgilaridan hisoblanadi. Favqulodda fikr ifodalanishiga koʻra oʻxshatish badiiy tasviriyy vosita nutqning bezagidir. *Mehmon – yonoqlari keng, **betlari tandirdan yangi uzilgan uy noniday qizil**, koʻpchigan, oʻrta yashar kishi Jamshidni yoniga oʻtqazdi* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”). *Umida yuragi toʻkilib ketganday boʻshab, soʻlgʻin tortib qoldi* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”).

Oʻxshatish tasviriyy vosita sifatida koʻpincha badiiy nutqda qoʻllanadi. Bu holat shu vositaning qisman uslubiyligini ham belgilaydi. Lekin oʻxshatish badiiy nutq doirasida cheklanib qolgan vosita emas, uni nutqning boshqa koʻrinishlarida, jumladan, soʻzlashuv nutqida ham koʻplab uchratish mumkin.

Tasviriyy vositaning bu turi narsa yoki predmetning belgisini ikkinchi narsa yoki predmetning xuddi shu belgisiga koʻra qiyoslash natijasida vujudga keladi. Shunga koʻra oʻxshatish uch asosga ega: oʻxshayotgan predmet, oʻzshagan predmet va oʻxshovchi belgi<sup>1</sup> bu uch jarayon oʻxshatishning asosini tashkil qiladi. Bundan tashqari oʻxshatish vositalari ham oʻxshatish hosil qiluvchi muhimroq omillardan hisoblanadi. Lekin oʻxshatish vositalarining oʻxshatish hosil qilishidagi ishtiroki baʼzan nisbiydir. Chunki ayrim oʻxshatishlarda koʻpincha bunday vosita ishtirok etmaydi. Shunga koʻra oʻxshatish vositali va vositasiz oʻxshatishlarga

bo`linadi. Vositali o`xshatishlarda o`xshatish xosil qiluvchi uch asosdan tashqari o`xshatish vositasi ham ishtirok etadi. Tilda o`xshatish hosil qiluvchi turli vositalar mavjud bo`lib, o`xshatish asosan leksik va grammatik jarayonlar vositasida vujudga keladi: - *Bu mulkni kimga tashlab ketaman, **qo`zim**. Har bir daraxti **bolam-ku*** (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”).

O`xshatish hosil qiluvchi leksik vositalar: *kabi, singari, go`yo, xuddi, misli, misoli, bamisli* ko`makchilari hisoblanadi. *-day (-dek), -simon, ona –larcha* va boshqa ko`pgina qo`shimchalar o`xshatish hosil qiluvchi grammatik vositalardir.

O`xshatishlardagi nutqiy obrazlilikni oshiruvchi asosiy xususiyat favqulodda o`xshatilishdir. Agar o`xshatilayotgan narsa yoki hodisa orasidagi belgi oldindan ma`lum bo`lsa, bunday o`xshatishlar nutqning obrazlilikini kuchaytiradi, deyish qiyin. Shunga ko`ra o`xshatishlarni ikki turga bo`lish mumkin:

1. Umumnutq o`xshatishlar
2. Badiiy o`xshatishalar

Umumnutq o`xshatishlarining obyekt, subyekti avvaldan ma`lum bo`ladi. Badiiy o`xshatishlar asosida ko`pchilikka ma`lum bo`lmagan belgi chog`ishtiriladi.

O`xshatishga faqat badiiy vosita sifatida qarash uning nutq jarayondagi vazifasini toraytirishga olib keladi. O`xshatish nutqning bezagi, til hodisasi bo`lib u badiiy nutqdan tashqarida ham ifodalilikka, ta`sirchanlilikka xizmat qiladi. O`xshatish badiiy nutq madaniyatining muhim belgilaridan biri sanaladi. Chunki:

1. O`xshatishning nutqning obrazli ifadadorligini oshirishi nutq madaniyati talablariga mos keladi;
2. O`xshatishda chog`ishtirish orqali fikr aniq belgilar bilan ifodalanadi. Bu holat nutq madaniyatining ixchamlik va qisqalik talablariga mos keladi;
3. O`xshatishlar orqali favqulotda kishining hayoliga kelmagan fikr ifodalanib, bu holat nutqning jozibadorligini kuchaytiradi.

Har bir adibning so`z qo`llash mahorati u qo`llagan original o`xshatishlar bilan ham belgilanadi. Chunki “dunyoni o`ziga xos tarzda ko`rish o`xshatish

semantikasida aks etadi”.<sup>40</sup> Sh. Xolmirzayev ana shunday original, o`ziga xos o`xshatishlarni yarata olgan mahoratli ijodkordir. Yozuvchining barcha asarlarida o`xshatishning go`zal namunalarini kuzatishimiz mumkin, Jumladan: *Tepalik etagidagi sariq saqichday loyi chiqib yotgan so`qmoq yoqasida to`xtashdi* (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”) Ayrim o`xshatishlar esa qahramon tashqi holatini aniq tasvirlahga yordam bergan: *Tilov to`rda karavotda botib o`tirar, sochlari kirpining po`stiniday dikkayib ketgan bir o`smir yog`och sopli pichoqning uchini pastga qaratib, ... qo`y qornini qirardi* (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”). Tabiat tasvirada ham o`xshatish alohida o`ringa ega: *Daryodan o`tgach, tagi bilan o`tqazib qo`yilgan bog`-bog` bug`doydek qiyoqlar o`sib yotgan sohil bo`ylab biroz yurdilar-da, atrofini son-sanoqsiz so`qmoqlar kamarday o`rab tashlagan baland tepalikka o`rlay boshladilar* (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”)

“O`n sakkizga kirmagan kim bor” asarida yozuvchining so`z qo`llash mahorati o`ziga xos. Mazkur qissada asar tili obrazlilikni oshirishda **sifatlashlarning** ham o`rni katta. Masalan: *Lahtak-laxtak qora, ho`l bulutlar bog` etagi tomon osilib borar, ular orqasidan sarg`ayib oy ko`rinardi*. Jumladagi **laxtak** so`zi fors-tojikcha bo`lib, “gazlama yoki terining qoldig`i, parchasi” - uning denotativ ma`nosi. Bu o`rinda esa bulutlar so`zi bilan birikma hosil qilib, parcha-parcha, tarqoq, samoda suzib yuruvchi bulutlarga nisbatan badiiy aniqllovchi vazifasini bajargan.

Ma`lumki, sifatlash mantiqiy aniqllovchining aynan o`zi emas. Agar mantiqiy aniqllovchi bir narsa-buyum belgilarini boshqasidan oddiy farqlasa, sifatlash yozuvchi tasvirlayotgan narsa-hodisa haqida yaxlit, bir butun, ko`chma ma`noli tasavvur uyg`otadi. Ayniqsa, Sh.Xolmirzayev asarlarida birikma tarzidagi sifatlashlar ko`p qo`llangan bo`lib, voqealar, xarakterlar tasviridagi obrazlilikni yanada oshirishga xizmat qilgan. Masalan: *Ularga qishloqdan chiqib kelgan, belbog`i uziq shinelli chol bilan yuqorigi labi qisqaligidan sarg`ish, baquvvat tishlari ko`rinib turgan bir o`smir ham ko`maklashdi* (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”)

---

<sup>40</sup> Махмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // “Ўзбек тили ва адабиёти”, 2013. 1-сон, 4-б.

Sifatlashlarni semantik jihatdan quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

1. **Insonga nisbatan qo'llangan sifatlashlar.** *Boyagi qizil ro'molli barvasta ayol deraza oynalarida qotib qolgan ohak tomchilarini ho'l latta bilan artardi* ("O'n sakkizga kirmagan kim bor") kabi.

2. **Inson bilan bog'liq tushunchalarga nisbatan qo'llangan sifatlashlar:** *So'ng bu mudroq, mungli hayotiga yorqin bir xotira kirganiga iqrar bo'ldi* ("Oy yorug'ida") kabi.

3. **Mavhum tushunchalarga nisbatan qo'llangan sifatlashlar:** *Ayni chog'da o'zining unga bog'lanib, bu qiz bilan yo'lakay suhbat asnosi mudroq ruhi ancha tetiklanib qolgani, u ketsa, usiz o'z ahvolini tasavvur qilolmasligini sezdi* ("Oy yorug'ida")

4. **Narsalarga nisbatan qo'llangan sifatlashlar:** *Qo'tir yo'lda oq eshar mingan bir yolovchi ko'rindi* ("O'n sakkizga kirmagan kim bor").

5. **O'rin-joyga nisbatan:** *Ular qiyalikdan pastlab, yarqirab oqayotgan sayoz soy bo'yiga tushdilar* ("Oy yorug'ida") *Qiz parishon bo'lib, olisdagi ufqqa, qora qalam bilan chizib qo'yilgandek tog'ga qaradi* ("Oy yorug'ida").

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sifatlashlar badiiy asar tilini jozibador, borliq tasvirini ta'sirli holda yaratishga xizmat qiluvchi lingvistik va poetik omildir. Badiiy tasvir vositalari nafaqat she'riy nutq, balki nasriy nutq jozibadorligini ta'minlashda ham ayricha ahamiyatga ega ekanligi Shukur Xolmirzayev ijodida yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

### **Bob bo'yicha xulosa**

1. Har bir badiiy asarning muvaffaqiyati adibning so'z qollash mahorati bilan uzviy bog'liq. Mohir so'z san'atkorlari nafaqat qiziqarli syujet, qahramonlar xarakterini yaratishdagi o'ziga xos usuliga, balki qalamga olingan voqelikni o'ziga xos joziba va ta'sirchanlik bilan ifodalashda ham o'z yosiniga ega boladi. Sh. Xolmirzayev proza ustasi sifatida har bir so'zni o'rinli, asosli tarzda qo'llab, umumxalq tili va adabiy til imkoniyatlarini har tomonlama o'z asarlarida ochib bera olgan adibdir.

2. Sh. Xolmirzayev asarlarida Boysun shevasiga oid fonetik, leksik, Grammatik vositalarni qahramonlar nutqida qoʻllagan va qissa hamda hikoyalarining xalqchilligini oshirishga erishgan.

3. Frazologizmlar nutqimiz koʻrki sifatida nasriy asarlarning badiiy qimmatini oshiruvchi vositalardan sanaladi.

4. Badiiy nutq taʼsirchanligini oshirishda tasvir vositalarining oʻrni va ahamiyati beqiyos. Bunday vositalarsiz badiiy nutq juda quruq, bayonchilikka asoslangan, taʼsir kuchidan xoli nutqqa aylanar edi. Aynan badiiy tasvir vositalari badiiy asar tilining shiraliligi, jozibadorligini taʼminlaydi. Haqiqiy soʻz sanʼatkorlari tesha tegmagan iboralar, metaforalar, sifatlash va tashbehlarni yaratib, tilimiz imkoniyat doiralarini yanada kengaytiradilar. Shukur Xolmirzayev ana shunday soʻz sanʼatkoridir. Uning zargarona mahorati har bir asari leksikasida koʻzga tashlanadi. Sh.Xolmirzayev asarlarida metafora, metonimiya, oʻxshatish, sifatlashlardan unumli foydalanadi.

### III BOB. SHUKUR XOLMIRZAYEV ASARLARIDA POETIK SINTAKSIS

#### 3.1. Poetik sintaksis va badiiy asar tili

Badiiy asarlarning til xususiyatlari XX asr o'zbek tilshunosligida uslubiyat tarkibida tahlil qilingan. Chunki o'tgan asrning 70-80-yillaridan o'zbek tilining stilistika (uslubiyat) va nutq madaniyati sohalarini, ularning muammolarini atroflicha o'rganish boshlangan va bu borada ancha ishlar amalga oshirilgan. Bu sohalarni o'rganish ishiga S.Ibrohimov, O.Usmonov, X.Doniyorov, A.Shomaqsudov, I.Qo'chqortoev, E.Begmatov, H.Rustamov, R.Qo'ng'urov, M.Mukarramov, A.Boboeva, B.Yo'ldoshev va boshqalar munosib hissa qo'shganlar. O'zbek tilining badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, so'zlashuv uslublarining monografik o'rganilishi, o'zbek nutqi madaniyati, talaffuz va imlo me'yorlariga bag'ishlangan ko'plab to'plam, risola va o'quv qo'llanmalarining, xususan, A.Shomaqsudovning «O'zbek tili stilistikasi» (1974), I.Qo'chqortoevning «Badiiy nutq stilistikasi» (1975), R.Qo'ng'urovning «O'zbek tili stilistikasidan ocherklar» (1975), mualliflar guruhi tomonidan tayyorlangan «Nutq madaniyatiga doir masalalar» (1972), «O'zbek tilining imlo lug'ati» (1975), «Adabiy norma va nutq madaniyati» (1988), «O'zbek adabiy talaffuzi lug'ati» (1984), «Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari» (1992) va boshqalarning nashr etilishi ushbu sohalardagi izlanishlarning samarasidir.<sup>41</sup>

Til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmay, balki tinglovchiga ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funktsiyasi an'anaviy va sistem-struktur tilshunoslikning o'rganish ob'ekti bo'lsa, ikkinchi funktsiyasi lingvopoetikaning o'rganish obyektidir.

Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshq.)

---

<sup>41</sup> Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Академнашр, 2012. 3 жилдлик, 3-жилд. – Б.19.

badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o'rganuvchi bo'limidir.

Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Filologiya tarixida badiiy asar tili va poetik til atamaları tez-tez uchrab turadi. Mazkur atamalar ifodalagan tushunchalar bir-biriga juda yaqin tursa ham, lekin o'zaro ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. «Obraz», «uslub», «ko'chim (trop)», «badiiy til», «stilistika», «poetika» kabi tushunchalar badiiy asar tili va lingvistik poetikaga daxldor tushunchalardir.

V.P.Grigoryevning ta'kidlashicha, badiiy til keng qamrovli ob'ekt sifatida funksional darajalangan qismlarga, fragmentlarga bo'linish xususiyatiga ega.

Amalda keng qamrovli obyektning ayrim fragmentlarigina badiiy nutqning tahliliga beriladi. Ana shunday asosiy fragment badiiy asar tili sanaladi. Ko'rinadiki, badiiy nutq badiiy asar tiliga nisbatan kengroq tushunchadir. U tilning ekspressiv funksiyasini o'z ichiga oladi. Badiiy asar tili esa badiiy nutqning bir ko'rinishi, bir fragmenti hisoblanadi.

Badiiy nutqni o'rganuvchi lingvistik poetika ham til sistemasi barcha sath birliklarining badiiy-estetik funksiyasini qamrab oladi. Fonetik-fonologik sathda fonetik birliklar ham badiiy-estetik vazifa bajarishi mumkin. Xususan, bir xil tovushlarning, bir xil bo'g'inlarning takrorlanishi she'riyatda go'zallikni, ta'sirchanlikni ta'minlovchi vosita sanaladi.

Leksik sathda leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilishi (metafora, metonimiya va boshq.), mubolag'a, meyozi kabi hodisalar ham ta'sirchanlikni oshiradi va lingvopoetikaning tekshirish ob'ekti sanaladi.

SHuningdek, gap bo'laklarining o'rinishi, gap tarkibida bir xil bo'laklarning takrorlanishi kabi hodisalar ham badiiy nutqni shakllantirishda xizmat qiladi.

Shunday qilib, lingvopoetika tilning qaysi sath birligining badiiy-estetik funksiyasini o'rganishiga qarab fonetik poetika, leksik poetika, sintaktik poetika kabi qismlarga bo'linadi.

Lingvopoetikaning har qaysi turini alohida-alohida o`rganish va ularning o`zaro munosabatini ochish hozirgi tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Badiiy adabiyotning vazifasi inson qalbining, dilining “sirli”, “yashirin” nuqtalarini yoritishdan iborat bo`lsa, badiiy til badiiy mahoratning uzviy bo`lagidir. Til orqali yozuvchi asar qahramonlarining murakkab, o`ziga xos xarakterli xususiyatlari, o`y-mulohazalari, his-tuygularini, shu jumladan, sharoit va muhitning inson ruhiyatiga ta`sirini tahlil qiladi.

Badiiy asar yaratish borliqni badiiy obrazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni bo`lib, san`atkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanish mas`ulyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikriy rang-barang bo`yoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini beruvchi bitmas-tuganmas xazinaki, uning javohirlaridan har bir yozuvchi o`z kuzatuvchanlik qobilyati, falsafiy mushohadasi va badiiy mahorati doirasi hamda darajasida foydalanadi.

Ijodkorning til sohasidagi san`atkorligi birinchi galda shunda namoyon bo`ladiki, u keng iste`moldagi so`z va iboralarni mohirona qo`llash bilan bir qatorda, xalqning ilg`or, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlari mumtazam ravishda kengaytira boradi. O`z tili materiallari asosida yangi so`z va iboralar yaratadi, har xil dialoglarda va umuman og`zaki nutqda mavjud bo`lib, adabiy-yozma nutq boyligi hisoblanmaydigon ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq sharoitlarda qo`llash yoli bilan ularga yangi ma`no va vazifalar yuklaydi.

Badiiy nutqning kommunikativ va shu bilan birga estetik vazifa bajarishi ma`lum. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan asosiy belgisi uning estetik funksiyasi, obrazlilik va ekspressivligidir.

Til mohiyatan, ichki qurilishi jihatidan denotativ (atash, nomlash, nominativ) va konnotativ ma`no bildirib, shu asosda aloqa vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki dualizmi, bir tomondan, ob`yektiv borliqni aks ettiruvchi tafakkurning shakli: ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu

elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatlaridan kelib chiqadigan mustaqil tizimdir.

Sh.Xolmirzayev mohir soʻz saʼnatkori sifatida tasvir vositalaridan juda keng va mohirona foydalangan. Badiiy asarda qoʻllangan barcha soʻzlar ham tasvir vositalaridir. Ana shu soʻzlar vositasida yozuvchi asarning maʼnosi, gʻoyasini oʻquvchiga yetkazib beradi, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisaga oʻquvchi munosabatini uygʻotadi.

Adabiyotning badiiyligi ijodkorni voqelikni obrazli idrok etishi va ana shu obrazli idrok etilgan voqealikni soʻzlar vositasida oʻzgalar hissiga, ruhiga va ongiga taʼsir koʻrsatadigan tarzda qayta yaratishdan, shakllantirishdan iborat murakkab ruhiy, aqliy va shuuriy hodisadir. Bu hodisada insonning besh sezgisi va oltinchi sezgi hisoblanmish ichki sezish orqali qabul qolingan har qanday axborat inson qalbidagi mavjud barqaror va beqaror tuygʻularga taʼsir etib badiiy kechinma tugʻdiradi. Badiiy kechinma esa ijodkor ruhiy, aqliy faoliyati bilan sintezlashib muayyan obrazlarni shakllantiradi. Ana shu obrazli hosilani estetik qimmatga esa boʻlgan soʻzlar vositasida tasvirlash adabiyotning badiiyligini tashkil qiladi<sup>42</sup>.

Ekspressivlik, emotsionallik ifodalashda sintaktik usullar alohida oʻrin tutadi. Bunday usullar xilma-xil boʻlib, nutqda obrazlilik, tasviriylik, emotsionallik, ekspressivlik kabilarni yuzaga keltiradi. Sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bogʻlovchilarning maxsus qoʻllanishi yoki qoʻllanmaslik hollari, antiteza, monolog, sukut qilish, inversiya, retorik soʻroq, takroriy gaplar kabilar stilistik usullar boʻlib, ular fikrning oʻta taʼsirchanligi-ekspressiv, emotsionaligi uchun himat qiladi.

Antiteza hodisasi bir necha asrlar davomida tilshunos olimlar diqqatini oʻziga jalb qilib kelgan. Lekin bu hodisa haqidagi fikrlar uning umumiy maʼnosini koʻrsatish bilan chegaralangan. Mashhur fransuz tilshunos olimi Sh. Ballining “Fransuzkaya stilistika” kitobing nashr etilishi hamda unda birinchi marta til va nutq birliklarining uslubiy vosita sifatida maʼlum bir bergilangan funksiyasini bajarish haqidagi fikrlarning bayon etilishi uslubiy fuguralar, shu jumladan,

---

<sup>42</sup> Саримсоков Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Т.: Фан, 2004. – В. 121.

antiteza hodisasining sintaktik- stilistik vosita sifatida alohida o'rganish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Natijada til stilistikasiga oid ishlarning ayrimlarida antiteza hodisasi sintaktik- uslubiy hodisalardan biri sifatida alohida tilga olinadigan bo'ldi<sup>43</sup>

Antiteza usulidan stilistik maqsadlarda keng foydalaniladi. Antiteza stilistik oppozitsiya usulidir. U ikkilik xarakteriga ega, yani unda faqat ikki narsa bir-biriga solishtiriladi va zid qo'yiladi. Bu hodisada uchinchi narsa bo'lmaydi. Shuning uchun ham antitezali sintaktik konstruksiyalar binarizatsiya tamoyili asosida shakllanadi va simmetrik xarakterga ega bo'ladi. Masalan: Qarang, butun dunyoni egallab kelayotgan yajuz-majuzday qo'shinga kichkinagina bir qishloq taslim bo'lmagan ("O'n sakkizga kirmagan kim bor").

Nutqda ifodalilikni yanada oshirish maqsadida mazmunan biri ikkinchisiga zid tushunchalar, mantiqan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlarni qarama-qarshi qo'yiladi. Antiteza hodisasi til sathlarining barchasida kuzatiladi. Lekin bu hodisaning sintaksis doirasidagi, ayniqsa, qo'shma gap sintaksisi doirasidagi vazifasi alohida ahamiyatga ega. Stilistik-sintaktik figuralar doirasida antiteza usuli qo'shma gaplarda qo'llanilish mahsuldorligi jihatidan sintaktik takror bilan bir qatorda turadi.

Antiteza badiiy adabiyotda va notqlikda faol qo'llanadigan sintaktik-stilistik vosita hisoblanib, unda bir-biriga zid qo'yiladigan tushunchalar, fikrlar qarama-qarshiligi natijasida nutqning ta'sirchanligi ortadi, bayon qilinayotgan umumiy fikrga nisbatan tinglovchining qiziqishi kuchayadi. Qo'shma gaplarda esa bu sintaktik-stilistik vositalarda intonatsiya ko'tarilib, shu gap doirasida kulminatsion nuqtaga yetadi.<sup>44</sup>

Sh.Xolmirzayev asarlarida ham antitezali qo'shma gaplarning qo'llanish ko'lamini keng kuzatiladi. Antiteza hodisasi orqali qahramon ruhiyatidagi qarama-qarshi tuyg'ular kurashi, qahramonlar orasidagi ziddiyatlar, voqea-hodisalar

---

<sup>43</sup>Ўзбек тили стилистикаси. –Т.,1983. –Б.190.

<sup>44</sup> Соипова Х., Усмонова М. бадий нутқда қўлланувчи антитезали қўшма гаплар.// Ўзбек филологийси ва уни ўқитишнинг долзарб муаммолари. Республика илмий-амалий анжумани материаллари. Фарғона, 2013, 131-6.

o`rtasidagi ziddiyatlar yaqqol tasvirlanadi. Tasvirning emotsional-ekspressivligi yanada ortadi. Buni misollar asosida ko`rib o`tamiz.

*Iye, nega qo`yar ekanman! – deya avj qila boshladi montyor. – Hayot o`shalar bilan hayot, uka! Bizni bor qiladigan ham, yo`q qiladigan ham o`shalar, men sizga aytsam* (“Bodom qishda gulladi”). Ayol zotining qadr-qimmati balandligi yuqoridagi qo`shma gapdagi antiteza hodisasi orqali yanada yaqqolroq tasvirlangan.

Antitezaning reallashuvida til va nutq birliklarining quyidagi turlari material bo`lib xizmat qiladi:

1. Antonim so`zlar:

A). sifat antonimlar: Uning jiddiyati ham kulgili, ham yoqimli edi (“Bodom qishda gulladi”). Dunyo torga tor, kengga keng ekan (“Qadimda bo`lgan ekan”).

B). Fe`l antonimlar: O`rnidan qo`zg`almoqchi ham bo`ldi. Polinaning gapini eshladi shekilli, yana yotdi (“Bodom qishda gulladi”). U ham yig`lamsirab, ham kulimsirab:

– Tashqarida esa qish! – dedi (“Bodom qishda gulladi”).

D). Ot antonimlar: *Keyin, o`ziga favqulodda bir yengillik berilgan-u, biz bechoralar atay mashaqqatga solinganday, mamnuniyat bilan karavoti qoshida biroz turdi* (“Bodom qishda gulladi”). *Uning ovozlari na shodlik, na g`am bor* (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”). *Uning xursandligini ham, xafaligini ham bilib bo`lmasdi* (“Bodom qishda gulladi”).

2. Kontekstual antonimlar: *Jahlingiz chiqqanda birovni urasiz. Quvonganda suyasiz...* (“Bodom qishda gulladi”).

3. Qo`shma gapni tashkil etgan sodda gaplar mazmuni o`rtasidagi ziddiyat: *Axir Hojarniyam yaxshi gap bilan ovutsam bo`lardi. Nuqul unga achchiqma-achchiq gapiraman* (“Qadimda bo`lgan ekan”).

4. Ba`zan nafaqat so`zlar, balki jumlar o`zaro qarama-qarshi ma`noli bo`lib, voqelikni bor ziddiyati bilan tasvirlash imkonini beradi: Keyin ulfati Nurqul nashavanddan eshitgan gapini unga uqtirdi: – *Hoy, birovga o`lim tilagandan ko`ra, o`zingga umr tila* (“Qadimda bo`lgan ekan”).

Shukur Xolmirzayev asarlarida qahramon ruhiy holatini yanada ta'sirliroq aks ettirish uchun bir necha gaplarda ketma-ket qarama-qarshi ma'noli so'zlardan foydalaniladi: Kampirga qaragisi keldi – o'zini tiydi. Biron yuz qadamlar olislagach, yana qarashni istadi: ammo qarasa, tag'in bir kor-hol bo'ladigan singari tezlikni oshirdi-yu, soylikka enaverib, taqqa to'xtatdi ("Qadimda bo'lgan ekan").

**Ritorik so'roq.** Badiiy asar tilining obrazlilikini oshirishda va qahramon ruhiyatini ochishda poetik sintaksis obyektlaridan biri- ritorik so'roqning ham katta ahamiyati bor. Ritorik so'roq gaplar fikrning ta'sirchanligini isbotlashga xizmat qiladi. Bu gaplar haqida fikr yuritganda ular javob talab qilmaydi, deyishga ham aslida hojat yo'q. Chunki ular ta'sirchan javobning o'zidir. Ritorik so'roq gaplar 3 xil yo'l bilan hosil bo'ladi:

1) so'roq olmoshlari ishtirokida: Nega men yig'lamayapman? Nega qora kiyimda emasman men? ("O'n sakkizga kirmagan kim bor"). Nega? Neha xafa emas? Nega g'amgin emas? Nima bo'lyapti o'zi? Nima qilib qo'ydim men? ("O'n sakkizga kirmagan kim bor").

2) so'roq yuklamalari orqali: Nimani ko'rdik biz? Inqilobnimi? Fuqarolar urushinimi? Yo qizg'in qurilishlarnimi? Yoki ikkinchi jahon urushinimi?

3) intonatsiya yordamida: - Qolaman? Shu uyda? Hamishaga? ("O'n sakkizga kirmagan kim bor")

Ritorik so'roq gaplarda ifodalangan fikr sof so'roq emas, subyekt yangi informatsiya olishini ko'zda tutmaydi, so'roq javob talab qilmaydi, balki so'roq orqali hukm ifodalanadi. Uning sintaktik qurilishi gapning logik mazmuniga mos kelmaydi. Ritorik so'roq gaplar ekspressiv funksiya bajaradi. U ko'tarinki kuchli emotsiya bilan aytiladi. Emotsiya esa bir tomondan zaruriyatning konkret texnik formasi bo'lsa ikkinchi tomondan individ zaruriyati nuqtayi nazardan vaziyatni baholash, qayta sozlash, uni zaruriy harakatga tayyorlash mexanizmi. Ritorik so'roqlarni funksiyasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: birinchi guruhdagi ritorik so'roqlar (javob talab qilmaydigan muroajaat) adresati – tindlovchiga qandaydir ta'sir qilishga mo'ljallanadi.

Ikkinchi guruhdagi ritorik soʻroqlar faqat ekspressivlik funksiyasini bajarib, sof emotsional taʼsir koʻrsatadi:

Ritorik soʻroq gaplar badiiy va publitsistik uslublar uchun xos boʻlib, bazan sozlashuv uslubida ham uchraydi. Umuman ritorik soʻroq gaplar nutqda kuchli stilistik vosita boʻlib, sintaktik jihatdan xizmat qiladi.

Ritorik soʻroq gap tarkibida keladigan **axir** soʻzi tasdiqni takidlash uchun xizmat qiladi.

Ayrim ritorik soʻroq gaplar sof soʻroq gaplarga oʻxshab ketadi. Ularning ritorik soʻroq ekanligini intonatsiya, konteks orqali anglanadi. Intonatsiyaning tasviriyligni oshiradigan, taʼsirchanlikni taʼminlaydigan omil sifatida kelishi ritorik undovlarda yanada yaqinroq koʻrinadi. U soʻroq yoki hissiyot xarakteriga ega boʻlishi mumkin.

Har ikki holatda ham u soʻzlovchi yoki yozuvchining koʻtarinki hissiyotini ifodalaydi.

Ritorik soʻroq gaplar eskpressiv vazifa tashuvchi sintaktik vositalardandir. Masalan, quyidagi parchada ritorik soʻroq gapning emotsional-ekspresiv funksiyasi yaqqol namoyon boʻlgan: *Xoʻsh, endi nima qilish kerak? Shunday yashayverish kerakmi? Otalarimiz nima uchun kurashdilar? Ular hayot baxtli boʻlsin, deb kurashgan ekanlar, bizning vazifamiz uni yana-da baxtiyorroq qilish emasmi? (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor?”)*

Ritorik soʻroq gaplarda ifodalangan fikr sof soʻroq emas: soʻzlovchi (subyekt) yangi maʼlumot olishini kutmaydi, soʻroq javob talab qilmaydi, balki soʻroq orqali hukm ifodalanadi. Aniqrogʻi, uning sintaktik qurilishi logik mazmuniga mos kelmaydi: *“Nima bu?” Umida birdan oʻz hayotida hech qanday maʼnili, tabiiy bir narsani koʻrmadi. “Shunday yashayveramanmi endi?.. Endi aktrisa ham boʻlolmaymanmi?” (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”).*

Ritorik soʻroq gaplar koʻtarinki, kuchli emotsiya bilan aytiladi. Emotsiya esa, bir tomondan, zaruriyatning aniq texnik shakli boʻlsa, ikkinchi tomondan,

individd zaruriyati nuqtai nazaridan vaziyatni baholash, qayta soʻzlash, uni zaruriy harakatga tayyorlash mexanizimidir.<sup>45</sup>

Ritorik soʻroq gaplarning mazmunidan tasdiq, inkor, xabar mazmuni anglashilib turadi: *Kimga boray? Kim tushunadi?* (“Bitikli tosh”)

Sh.Xolmirzayev asarlarida ritorik soʻroq gaplar qahramonlarning murakkab vaziyatga tushganligi, bu murakkab vaziyatni bartaraf etishga yoʻl qidirayotganligi, biroq chorasizligini aniq va obrazli tasvirlashga xizmat qilgan: *-Bu nima ahvol oʻzi? Chigʻatoy qabristonigayam shu kunlar tushadimi?* (“Bitikli tosh”)

**Koʻp bogʻlovchilik yoki bogʻlovchisizlik.** Nutqqa keskinlik, shoshilinch tus, tezlik xarakterini kiritish uchun notiq yoki yozuvchi gapda lozim boʻlgan bogʻlovchilardan ataylab tushirib qoldiradi, gap boʻlaklari orasidagi aloqa intonatsiya orqali ifodalanadi: *Va, darhaqiqat, uyiga-bogʻiga qaytib borgach, gʻayrati qoʻzib, ketmonni qoʻlga olar, qandaydir, kimgadir bergan vaʼdasining ustidan chiqadigandek, bir shaxd ila goh joʻyak tortib koʻchat oʻtqazar, goho daraxtlarning tagini yumshatar, goh goʻng tashir va sochar ediki, bundan kamgap xotini-da xursand boʻlib, unga choy tutar, qizalogʻI esa quvnay-quvnay izidan erhashib yurardi* (“Bitikli tosh”).

Koʻp bogʻlovchilik vazifa jihatidan bogʻlovchisizlikka qarama- qarshi turadi. Yaʼni aytganimizdek, bogʻlovchisizlik keskinlik, harakat tezligini koʻsatish uchun xizmat qilsa bogʻlovchilar takrorlanishi nutqqa sokinlik, taʼkidlash maʼnosini kiritish uchun xizmat qiladi va sekinlashtirilgan ohang toʻxtatishlar bilan ham oʻziga xos xususiyat kasb etadi.

**Inversiya** nutqning taʼsirchanligi, ekspressivligi, emotsionalligi kabi maʼnolarni ifodalash uchun maxsus qoʻllanadi. Bu faqat oʻzbek tiliga xos boʻlmay, barcha turkiy tillarga xos boʻlgan stilistik hodisadir. Inversiya odatda bir gap boʻlagi doirasida yuz beradi. Lekin u oʻz navbatida boshqa boʻlakning ham oʻrnidan siljishiga sabab boʻladi: Chiqib darvozaxonaga qaradi Jamshid (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”).

---

<sup>45</sup> Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 106.

Ekspressivlik, emotsionallikni ifodalashda gapning takrorlanishi alohida oʻziga xos nutq shaklidir. Takrorlanish hodisasi yuqoridagi inversiya hodisasidan oʻziga xos tomonlari bilan farqlanadi<sup>46</sup>. Takrorlanishning 2 xil shakli bor: a) toʻla takror; b) qisqa takror. Har ikkala qoʻllanishda ham intensivlik, emotsionallik ifodalanadi: *Mana, onam! Momoning aytishicha, tugʻilganlaridan beri tinmagan ekanlar. Hali togʻda, hali dashtda, hali boshqa yoqda* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”).

Takrorlash bu qayta-qayta uqtirish demakdir. Shunga koʻra har qanday takror zaminida kuchaytish, ekspressivlik, emotsionallik yotadi: *Umida garangsib derazaga boqdi. Tashvish, tashvish, tashvish...* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”).

Qahramonlar ruhiy holati, ijobiy yoki salbiy emotsiyalari dialoglarda toʻla ochib beriladi. Sh.Xolmirzayev asarlarida dialog, poliloglardan keng foydalaniladi va bu jarayonda tilning sintaktik hodisasi – ellipsis yuzaga keladi:

- *Xoʻp. Endi rais amakim... otam-a?*
- Zaynabxon yana boʻshashib ketdi.*
- *Ha.*
- *Men u kishini ota deymi endi?*
- *Ha .*
- *Endi oʻzimning otam kelmaydi-ya?*
- *H-ha...* (“Oʻn sakkizga kirmagan kim bor”)

Sh.Xolmirxayev asarlarida ellipsis kesim, ega va ikkinchi darajali boʻlaklar doirasida kuzatiladi.

### **3. 2. Murojaat-undalmalarning lingvopoetik xususiyatlari**

Undalma bosh kelishikdagi ot yoki ot maʼnosidagi soʻzlar orqali ifodalanadi.

Undalma ot orqali ifodalanganda, asosan, atoqli otlar yoki turdosh otlar boʻlishi mumkin. Atoqli otlardan eng koʻp uchraydigani kishi ismlaridir: *-Yoʻq,*

---

<sup>46</sup> . Болтабоева Х Ажратилган бўлаklar ва алратилишга доир- „Ўзбек тили ва адабиёти” 1974, 44-бет

*Dilnuraxon... Keyin tetiklanib ketdi. – Axir o`zingiz ko`rib yurardingiz-ku... (“Bitikli tosh”) – Kim u, Zaynabxon? – to`rdan gap otdi rais (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”).*

Badiiy asarlarda familiya va otasining ismi bilan ifodalangan undalmalar ham ko`plab uchraydi, bu holat rasmiy munosabatlarni yoritish maqsadida qo`llanadi. *Dilnura unga og`ringan ko`z bilan qaradi.*

- *O`rtoq Keldiyev...*

- *E, endi odamni quyushqondan chiqarib yuboradi... (“Bitikli tosh”)*

Turdosh ot shaxsini ifodalovchi, jonsiz va jonli predmetlarni ifodalovchi so`zlar hisoblanadi. Sh. Xolmirzayev asarlarida qo`llangan undalma vazifasidagi turdosh otlar, asosan, shaxsni ifodalovchi so`zlardir.

Ularni quyidagi turlarga bo`lish mumkin:

1. Qarindoshlikni bildiuvchi otlar: - Momojon, dashtga boramiz, - deb pichirladi Jamshid (“O`n sakkizga kirmagan kim bor”)

2. Yaqinlik, do`stlikning bildiruvchi otlar:

– *Jiyanli bo`ldingiz, og`ajon!* (“Olam tortilish qonuni”) – *Do`stim, qachon keldilaring, hozirmi?* (“Yosuman”)

3. Jinsni bildiruvchi otlar: – *O`g`lim, mana shu Surxon! Hanifa, shu Surxon!* (“Farzand”)

4. Sifatlovchi bilan kengayib kelishi mumkin: Tursunoy baqirib qoldi:

– *Ho`, ichadigan yigit! Endi qadamingizni bilib bosing, xo`pmi?* (“Shudring tushgan bedazor”)

Undalma ko`pincha undov so`zlar bilan birga qo`llanadi. Undashning kuchli ifodalanish uchun undalmaning oldida hoy, hov, hey, ey kabi undov so`zlar keladi. Yoki ohiriga -ov (xov, xoy) ey (ey) kabi elementlar qo`shilib keladi: – *E xudo! Endi nima qilaman? Eri tashlab ketdi, degan gapni qanday ko`tarib yuraman?... (“Shudring tushgan bedazor”)* Shu bilan birga undov so`zning o`zi ham mustaqil ravishda undalma vazifasida qo`llanishi mumkin. Bunday undov so`zning mazmunan shaxs nomi o`rnida kelgani anglashilib turadi: undalmaga xos chaqiriq intonatsiyasi bilan talaffuz etiladi: – *Hoy!*

*Ikromjon yana harchand qaramoqchi bo`lmasin, qaray olmadi.* (“Shudring tushgan bedazor”)

Undalma soʻz birikmalari, turgʻun frezeologik birikmalar orqali ham ifodalanadi: *Oʻrtoq melisalar, bizni kechiringlar... Bu oilaviy gap* (“Shudring tushgan bedazor”).

Sh. Xolmirzayev asarlarida yana shevaga xos boʻlgan soʻzlarning undalma vaizifasida kelganini koʻrishimiz mumkin:

Undamlar vulgarizmlar bilan ifodalanishi mumkin: – *He, enagʻar, – deb iljayib turdi Oʻsar. – ...Jallod amir zamonida boʻlgan, savodsiz!* (“Qadimda boʻlgan ekan”)

Badiiy asarlarda qoʻllangan undalmalarni semantik va stilistik funktsiyasiga koʻra uch guruhga boʻlish mumkin

1. Nutq qaratilgan obyektни ifodalovchi undalmalar;
2. Nutq qatarilgan obyekt ham uch xil boʻlishi mumkin:
  - a) shaxs;
  - b) shaxs boʻlmagan jonli predmet;
  - v) jonsiz predmet.

Shaxsni ifodalagan undalmalarni ham oʻz navbatida ikkiga boʻlish mumkin:

birinchi: tinglovchiga qaratilgan undalma;

ikkinchi: soʻzlovchining oʻziga qaratilgan undalma.

Tinglovchiga qaratilgan undalma kishining nomi, familiyasi, taxallusi, qarindoshligi, yoshi, kasbi, unvoni va boshqa xususiyatlarini koʻrsatish mumkin.

### **III bob boʻyicha xulosa**

1. Har bir yozuvchining oʻziga xos uslubi uning nafaqat soʻz qoʻllash mahorati, badiiy tasvir vositalaridan, xalqona ibora va hikmatlardan foydalana olishi bilan, balki til sintaktik vositalaridan oʻziga xos tarzda foydalanishi bilan ham belgilanadi.

2. Badiiy asar obrazlilikini oshirishga xizmat qiluvchi sintaktik usul va vositalar qatoriga antiteza, takrorlar, ellipsis, sarkazm, ritorik soʻroq gaplar,

inversiya kabilar kiradi. Shukur Xolmirzayev asarlarida bu vositalardan eng ko'p qo'llanadigani antiteza hamda ritorik so'roq gaplardir.

3. Antitezaning yozuvchi ijodida keng qo'llanishining asosiy sababi asarlar syujetining murakkabligi, qahramonlarning turli mashaqqatli vaziyatlarga tushishi hamda botiniy va zohiriy kurashlarni boshidan kechirishlari, personajlar o'rtasidagi, tasvirlanayotgan borliqning ziddiyatli xarakterga ega ekanligidadir.

4. Ritorik so'roq gaplardan esa ruhiy evrilishlar, turli murakkab vaziyatlarda personajlarning fikriy ikkilanishlari, murakkab vaziyatda ekanliklarini kitobxonga to'la-to'kis, ta'sirli ifodalab berish, ba'zan kinoya, pichingni ifodalash maqsadida foydalaniladi.

5. Shukur Xolmirzayev asarlarida murojaat-undalmalarning o'ziga xos leksik-semantik, uslubiy va badiiy xususiyatlari mavjud.

6. Shukur Xolmirzayev ijodida ellipsis, takror, inversiya hodisalari ham kuzatiladi va fikr ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

## UMUMIY XULOSALAR

Biz o'zining tinimsiz izlanishlari, iste'dodi, xalq qalbi va milliyligini teran aks ettira olishi bilan o'zbek nasrida alohida o'rin tutadigan mahoratli so'z san'atkori Shukur Xolmirzayev asarlari til xususiyatlarini lingvopoetik jihatdan tahlil qilish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga keldik:

1. Badiiy asar yaratish borliqni badiiy obrazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni bo'lib, san'atkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanish mas'uliyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikriy rang-barang bo'yoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini beruvchi bitmas-tuganmas xazinaki, uning javohirlaridan har bir yozuvchi o'z kuzatuvchanlik qobiliyati, falsafiy mushohadasi va badiiy mahorati doirasi hamda darajasida foydalanadi.

2. Shukur Xolmirzayev asarlarining xalqimiz orasida katta shuhratga ega bo'lishi va sevib o'qilishida nafaqat asarlar syujetining qiziqarli va o'tkirligi, qahramonlarning o'ziga xosligi va murakkabligi, balki ular tilining har tomonlama ishlanganligi, xalqchilligi alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, badiiy adabiyotning asosiy quroli so'z sanaladi. So'z serqirra va murakkab lisoniy hodisa, fonetik-fonologik, leksik-semantik, ijtimoiy va ruhiy xususiyatlar majmuidir.

3. Shukur Xolmirzayev asarlarida so'zning qudratini alohida inobatga olgan holda, undan zargarona foydalanadi. Muayyan voqelikni tasvirlashda shunchaki bayondan qochadi, balki ko'p ma'noli so'zlar, so'zning konnotativ ma'nosi, ma'no ko'chishining turli usullari, xalqona ibora va birikmalarni unumli qo'llaydi.

4. Badiiy matnda metafora alohida ahamiyatga ega. Jumladan, obrazlilikni ta'minlash, voqea-hodisani, fikrni jonli aks ettirishda metafora o'ziga xos o'ringa ega. Nafaqat she'riy nutqda, balki nasriy asarlarda ham metaforalardan unumli foydalaniladi. Ayniqsa, murojaat-undalma sifatida metafora usulida ma'nosi ko'chgan so'z qo'llansa, murojaat qilinayotgan shaxsga nisbatan ijobiy yoki salbiy emotsiya yaqqol yuzaga chiqadi. Shukur Xolmirzayev asarlarida metaforaning oddiy va badiiy, sodda va murakkab turlari keng qo'llangan. Ayniqsa, sifatlash va

o`xshatishlarning qo`llanishi va semantikasi alohida lisoniy va badiiy xususiyatlarga ega.

5. Barcha ijodkorlar kabi Shukur Xolmirzayev ijodi ham xalq donoligidan bahra olganligi uchun yuksak darajaga ko`tarilgan. Adib asarlari xalqchilligini ta`minlashda maqol, hikmatli so`z va iboralarning o`rinli va faol qo`llanganligi bilan ham jozibadordir.

6. Shukur Xolmirzayev asarlari badiiyligini ta`minlashda poetic sintaksisning ham alohida ahamiyati bor. Adib asarlarida sodda gaplardan keng foydalanilgan. Sodda gaplar fikrni lo`nda va aniq ifodalashga xizmat qilgan.

7. Yozuvchi ijodidagi qo`shma gaplarda antiteza usulidan keng foydalanilgan. Antiteza usuli qahramon ruhiyatidagi ziddiyat, qahramon va voqelik o`rtasidagi o`zaro qarama-qarshilik, qahramonlar orasidagi konfliktni aniq va jonli tasvirlashga xizmat qilgan.

8. Qahramonlar ruhiyatidagi murakkabliklarni ta`sirli ifodalashda ritorik so`roq gaplar, takrorlar, murojaat-undalmalardan keng foydalanilgan.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

### **I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.: O`zbekiston, 2017.
2. Мирзиёев Ш. Мамлакатимизни 2016 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг асосий якунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза.
3. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda quramiz.– T.: O`zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta`minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O`zbekiston, 2017.
5. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat`iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo`lishim kerak.– T.: O`zbekiston, 2017.
6. Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch.- T.: Ma`naviyat, 2010.

### **II. Ilmiy adabiyotlar**

7. Абдурахмонов Х., Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси. Т.: Фан, 1981.
8. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Т.: Фан, 1985.
9. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2002.
10. Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. – Toshkent, 2008. – 1-kitob. – B.6-12
11. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – Б. 212.
12. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Тошкент, 2007. – Б.3.

13. Йўлдошев М. Бадиий матннинг лингвопоэтик таҳлили асослари.-Т.: Фан, 2007.
14. Йўлдошев М., Ядгаров Қ. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Т., 2007.
15. Лапасов Ж. Бадиий матн ва лисоний таҳлил. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
16. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
17. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент.: Ўқитувчи, 1995.
18. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. –Т.: Фан, 2004.
19. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўбек адабий тили. Т.: Ўқитувчи, 1975.
20. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: Ўқитувчи, 1980.
21. Шомаксудов А., Расулов И., Қўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. Т.: Ўқитувчи, 1983.
22. Қиличев Е. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. Т.: Фан. 1982.
23. Қиличев Е. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Т.: Ўқитувчи, 1992.
24. Қосимова М. Бадиий нутқ индивидуаллигининг лисоний асослари. НДА, 2007.
25. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ лексикаси. Т.: Фан, 1975.
32. Қиличев Е. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси. Т.: Ўқитувчи, 1992.
26. Худойбердиев Е. Адабиётшуносликка кириш.-Тошкент: Шарқ, 1998.
25. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.-Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006.
26. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. М.: Рус тили, 1981.
27. Ўзбек тили стилистикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1983.
28. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.– Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
33. Qurbonova M., Yo`ldoshev M. Matn tilshunosligi. – Т.: Universitet, 2014.

34. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Akademnashr, 2010.
35. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1983.
36. Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1985.

### **III. Manba adabiyotlar**

37. Xolmirzayev Sh. Kimsasiz hovli. – Т.: O`zbekiston, 2015.
38. Xolmirzayev Sh. O`n sakkizga kirmagan kim bor. – Т.: Yangi asr avlodi, 2015.

### **IV. Internet adabiyotlari**

39. Xolmirzayev Sh. Saylanma. 1-китоб. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). кутубхонаси
40. Xolmirzayev Sh. Saylanma. 2-китоб. [www. ziyouz.com](http://www.ziyouz.com). кутубхонаси